Elektron ta'lim resurslarini takomillashtirish masalalari N.A.Muslimovning "Kasb ta'limi o'kituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari" mavzudagi doktorlik ishida [4], B.S.Abdullayevaning "Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlardagi akademik litseylarda matematika o'qitish misolida)" nomli tadqiqotida [5], S.D.Bazarovaning "Oliy texnik ta'limda kasbiy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarining tizimli asoslanishi" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida elektron ta'lim resurslari, virtual ishlanmalar, dasturiy vositalarning ta'lim jarayoni samaradorligiga ijobiy ta'siri yoritilgan [6]. A.A.Abduqodirov va A.X.Pardaevlarning "Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti" nomli qo'llanmasida [7], M.M.Aripovning "Informatika, informatsion texnologiyalar" nomli oliy o'quv yurtlari uchun darsligida [8], M.Ochilov "Yangi pedagogik texnologiyalar" nomli qo'llanmasida [9], N.S.Saydahmedovning "Pedagogikada yangicha fikrlash" qo'llanmasida [10] masofaviy ta'limning nazariy, ilmiy-amaliy jihatlari keng yoritilgan hamda zamonaviy ta'lim jarayonlarida, ayniqsa aniq fanlar (fizika, matematika, informatika) ta'limini tashkil etishda raqamli ta'lim texnologiyalarining zaruriyati keltirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mustaqil ta'lim talabaning o'z bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish jarayonida faol, o'zini-o'zi boshqaruvchi, mas'uliyatli qatnashishidir. Bunda talaba: O'quv maqsadlarini mustaqil belgilaydi (Masalan, "Elementar zarralarning spin xususiyatini tushunish").

Manbalarni tanlaydi va tahlil qiladi (ilmiy maqolalar, onlayn kurslar, virtual laboratoriyalar).

Raqamli texnologiyalar kontekstida mustaqil ta'lim quyidagi ko'rinishlarda tashkil qilinishi mumkin:

Virtual laboratoriyalar (masalan, CERNning "Open Data" platformasi) orqali tajribalar o'tkazish, interfaol simulyatsiyalar (PhET, GeoGebra) yordamida murakkab fizika hodisalarini vizuallashtirish, asoslovchi platformalar (sun'iy intellekt) bilan masalalar yechishda hamkorlik.

Mustaqil ta'limni samarali tashkil qilish uchun quyidagi metodik yondashuvlardan foydalanish tavsiya etiladi: Ta'lim jarayonida har bir mavzu uchun aniq maqsad va vazifalar belgilanadi. Talabalar elementar zarralar va ularning turlari haqida bilimga ega bo'lishlari.

Raqamli vositalar ichida mavzuga mos keladigan resurslarni tanlash lozim. Bu quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

Interaktiv video darslar;

Elektron kitoblar va maqolalar;

Topshiriqlar, testlar va masalalar to'plami;


Talabalar bilimini baholash uchun raqamli texnologiyalar yordamida test tizimlari, onlayn topshiriqlar va nazorat savollari amalga oshiriladi. Bu, talabalar bilim darajasini real vaqt rejimida kuzatishga va natijalarga ko'ra shaxsiy yondashuvni qo'llashga imkon beradi.

Natijalar va ularning tahlili.

Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonlarini integraktiv, qulay va samarali tashkil etishda katta imkoniyatlar yaratadi. Mustaqil ta'limni raqamli vositalar asosida tashkil qilishda quyidagi natijalarga erishish mumkin:


Individuallashtirilgan o'quv jarayonida har bir talaba o'zining bilim darajasiga mos ravishda resurslardan foydalanadi. Qo'llaniladigan vositalarning xilma-xilligida virtual laboratoriyalar, interaktiv simulyatsiyalar, video darslar va test tizimlari orqali o'quv jarayoni boyitiladi. Masalan:

1) https://home.cern/resources/360-image/accelerators/virtual-tour-lhc orqali CERN Yevropa Xalqaro Tadqiqotlar Markaziga virtual sayohat uyushtirish mumkin.




1-rasm. Katta Adron Kollayderiga virtual sayohat bosh ekrani

2) https://op-webtools.web.cern.ch/vistar/?usr=ACCRTT orqali CERN Yevropa Xalqaro Tadqiqotlar Markazida o'tkazilgan tadqiqot natijalari bilan tanishish va zarralar fizikasi sohasidagi yangiliklardan habardor bo'lishi mumkin.



2-rasm. CERN dagi zarralar tezlatkichining umumiy ko'rinishi (virtual)



3-rasm. Katta Adron Kollayderi kollimatorlari haqida ma'lumot (onlayn)

Yaratilgan masofaviy ta'lim imkoniyatlari orqali talabalar geografik joylashuvdan qatiy nazar, ta'lim resurslariga kirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Xulosa.

Elementar zarralar fizikasi bo'limidan mustaqil ta'limni raqamli texnologiyalardan tashkil etish o'qitishda talabalarni pedagogik va ilmiy-tadqiqot faoliyatga tayyorlash hamda kommunikativ, shaxsiy, texnologik, innovatsion kasbiy kompetentlik komponentlarini rivojlantirishga amaliy yordam beradi. Elektron-didaktik vositalari va virtual simulyatorlardan kompleks foydalanish natijasida ishlab chiqish tadqiqotning asosiy vazifasi hisoblanadi. Zarralar fizikasidan mustaqil ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish talabalarda olamning yagona fizik manzarasini anglashning metodik-raqamli fazosini optimallashtirilgan dualizmini aniqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar.

1. Бегумқулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти. Пед.фан.док.дисс. – Тошкент: ТДПУ, 2007. – Б. 305.;
2. Закирова Ф.М. Теоретические и практические основы методической подготовки будущих преподавателей информитикии в педагогических ВУЗах: дисс.докт.пед.наук. –Ташкент, 2008. – 312 с.
3. Юнусова Д.И. Бўлажак математика ўқитувчисини инновацион фаолиятга тайёрлаш назарияси ва амалиёти. Пед.фан.док.дисс. – Тошкент: ТДПУ, 2012. – Б. 140.
4. Муслимов Н.А. Касб таълими ўкитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий- методик асослари. Пед. фан. док. дисс. автореф. – Тошкент: ТДПУ, 2007. – 47 б.;
5. Абдуллаева Б.С. Фанлараро алоқадорликнинг методологик-дидактик асослари (Ижтимоий-гуманитар йўналишлардаги академик лицейларда математика ўқитиш мисолида). Пед.фан.док.дисс. автореф. – Т.: 2006. – 49 б.;
6. Базарова С.Д. Олий техник таълимда касбий йўналтирилган ўқитиш технологияларининг тизимли асосланиши. Пед.фан.док.дисс. автореф.–Т., 2009. – 36 б.
7. Абдуқодиров А.А., Пардаев А.Х. Масофали ўқитиш назарияси ва амалиёти. – Тошкент: Фан, 2009. – 145 б.
8. Арипов М.М. Информатика, информацион технологиялар. Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Тошкент: ТДЮИ, 2004. – Б.275.
9. Очилов М. Янги педагогик технологиялар.– Қарши: Насаф, 2000. – Б. 80.;
10. Сайдаҳмедов Н.С. Педагогикада янгича фикрлаш. – Тошкент: «Истиқбол», 2002. – Б. 62.;
11. https://op-webtools.web.cern.ch/vistar/?usr=ACCRTT
12. https://www.labxchange.org/?gad_source=1&gclid=CjwKCAjw8IfABhBXEiwAxRHlsOilvWbyYNLapsb5k8OhoooSDf8sceS0iHl2VWqX7kYaoJlGG_0N2hoCCP8QAvD_BwE
13. https://home.cern/resources/360-image/accelerators/virtual-tour-lhc
14. https://home.cern/resources

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-5]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Toshxonov Azizbek Tursunboyevich
University of Business and Science
p.f.b. PhD, dotsent v.b.
Elektron manzil: azizbek.toshxonov.1990@gmail.com

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUV FAOLIYATI ASOSIY KOMPONENTLARINI SHAKLLANTIRISHNI TA’MINLASHNING MOTIVATSION-INDIKATIV BOSQICHI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘qituvchining o‘qitish faoliyati va o‘quvchining o‘quv-kognitiv faoliyati o‘rtasidagi munosabatni tavsiflovchi metodik usullar, metod shakllari va vositalar haqida so‘z yuritamiz. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining miqdor tushunchalari asosida o‘quv faoliyatini rag‘batlantirish uchun metodik yondashuvlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *motivatsion-indikativ, shakl, metod, vosita, texnika, psixologika, pedagogika, metodik yondashuv.*

Тошхонов Азизбек Турсунбоевич
University of Business and Science,
PhD, исполняющий обязанности доцента

МОТИВАЦИОННО-ИНДИКАТИВНЫЙ ЭТАП ФОРМИРОВАНИЯ ОСНОВНЫХ КОМПОНЕНТОВ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: *В данной статье рассматриваются методические подходы, формы и средства, характеризующие взаимосвязь между учебной деятельностью учителя и учебно-познавательной активностью ученика в начальных классах. Приведены методические подходы, направленные на стимулирование учебной деятельности учащихся начальной школы на основе их понимания количественных понятий.*

Ключевые слова: *мотивационно-индикативный, форма, метод, средство, техника, психология, педагогика, методический подход.*

Toshkhonov Azizbek Tursunboevich
University of Business and Science,
PhD, Associate Professor (Acting)

THE MOTIVATIONAL-INDICATIVE STAGE OF FORMING THE CORE COMPONENTS OF EDUCATIONAL ACTIVITY IN PRIMARY EDUCATION

Abstract: *This article discusses methodological approaches, forms, and tools that characterize the relationship between the teaching activity of the teacher and the learning-cognitive activity of the student in primary school classes. Methodological approaches are presented to stimulate educational activity in primary school students based on their understanding of quantitative concepts.*

Keywords: *motivational-indicative, form, method, tool, technique, psychology, pedagogy, methodological approach.*

Kirish.

Kattaliklarni o‘rganish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv faoliyatini shakllantirish uchun biz o‘quv maqsadlarini amalga oshirishni ta’minlaydigan turli xil shakllar, metodlar, vositalar va texnikalar to‘plamini ishlab chiqdik. Ular nafaqat matematik bilimlarni o‘zlashtirishga (ob’yektlarning xususiyatlarini, kattaliklarini va ular o‘rtasidagi munosabatlarni ajratishga), eng muhimi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik fikrlashni rivojlantirish, tarbiyalash, bolaning shaxsini rivojlantirish, o‘quv faoliyatini shakllantirishga hissa qo‘shadilar va birgalikda ta’limni rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu maqolada biz ta’lim faoliyati usullari (umumiy o‘quv, umumiy, maxsus, xususiy) haqida emas, balki o‘qituvchining o‘qitish faoliyati va o‘quvchining o‘quv-kognitiv faoliyati o‘rtasidagi munosabatni tavsiflovchi metodik usullar, metod shakllari, va vositalar haqida so‘z yurutamiz.

O‘quv faoliyatini shakllantirish talabalarni uning har bir komponentini qayta ishlashni o‘z ichiga oladi. D.B.Elkonin-V.V.Davidovning ta’lim faoliyati kontseptsiyasida ushbu faoliyatning quyidagi

komponentlari ajratilgan: o‘quvchining o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan o‘quv vazifasini qabul qilishi va o‘quvchilar o‘zi uchun o‘quv vazifalarini mustaqil ravishda belgilashi, bu o‘quvchining ishlashga tayyorligini yaratadi va o‘quv motivlarini shakllantirish bilan chambarchas bog‘liq - motivatsion yo‘nalish komponenti; o‘quv harakatlarini amalga oshirish o‘quvchining o‘zi tomonidan nazorat va baholash harakatlarini amalga oshirishni o‘z ichiga olgan ijro –operatsion komponent va nazorat-baholash komponentidir.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan metodik bilimlar to‘plami uning komponentlarini o‘zaro bog‘liqligida qo‘llaniladi, ular bir-birini to‘ldiradi va bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish jarayonining turli jihatlariga ta’sir qiladi. Biz boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv faoliyatining asosiy tarkibiy qismlarini shakllantirish bilan bog‘liq holda ishlab chiqilgan shakllar, metodlar, vositalar va metodik usullarning mohiyatini ochib beramiz, bunga nisbatan ular o‘quv jarayonining har bir bosqichida eng katta darajada namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematikani o‘qitish muammolari turli yo‘nalishlarda o‘rganilgan: matematik ta’limdagi islohotlar munosabati bilan arifmetikani o‘qitishning yangi usullarini izlash (Y.M.Kolyagin, L.M.Korotkova); boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematikani o‘qitishni baholash va samaradorlik mezonlari (O.L.Anufriyeva, T.P.Kucher, V.V.Siyakov); boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda turli usullardan foydalanish samaradorligi (tadqiqiy - T.N.Baybara, individual va jamoaviy shakllarning uyg‘unlashgani - V.A.Vixrush, guruhlarda qo‘llash mumkin bo‘lgan shakllar - Y.S.Zadaya, Y.V.Kuzmina).

Quyidagi masalalarda tadqiqotning umumiy mazmuni ishlab chiqilgan:

- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv faoliyatini shakllantirish (F.G.Bodanskiy, F.V.Varegina, I.V.Gaydamakina, V.V.Davidov, A.K.Dusavitskiy, K.A.Zagorodnix, O.B.Yepisheva, J.O.Kanevskaya, A.A.Papishev, V.V.Repkin, V.V.Rubtsov, V.I.Slobodchikov, N.P.Faustova, S.E.Sareva, G.A.Sukerman, D.B.Elkonin, H.A.Yankovskaya)[2, 3, 4, 7];

- aqliy harakatlarni rivojlantirish (L.H.Butivshenko, V.V.Davidov, A.Z.Zak, A.B.Ilyasova, A.I.Martinova, V.V.Repkin, N.G.Salmina, N.F.Talizina, I.V.Titova, E.H.Shilova) [2, 3];

- darsni tashkil etishda yosh xususiyatlarini hisobga olish (N.I.Baglayeva, N.U.Bikbayeva, L.G.Kolomiychenko, B.A.Saylibaev, N.Z.Chalabgiv);

- maktabgacha yoshdagi bolalar, boshlang‘ich va yuqori sinf o‘quvchilari tomonidan matematikaning ayrim masalalarini o‘rganishda uzluksizlik (G.V.Voiteleva, Y.A.Konobeyeva, T.K.Ospanov, L.G.Peterson);

- fanlararo aloqalardan foydalanish (C.B.Tadiyan, V.T.Plitteu, O.S.Snisarenko);

- o‘quv va kognitiv qiziqishlarni rivojlantirish (R.B.Basangova, O.G.Bochkovskaya, B.K.Dabilova, Z.V.Druz, A.K.Dusavitskiy, G.I.Kobernik, A.K.Markova, A.F.Obuxova, A.Y.Savchenko, E.S.Silnova);

- ta’limiy va o‘yin faoliyatlarining o‘zaro bog‘liqliklari (J.V.Arutyunyan, V.A.Krutiy, M.I.Mikitinskaya, G.A.Sukerman, T.M.Chebotarevskaya, N.K.Shabalina, D.B.Elkonin).

Tadqiqot metodologiyasi.

To‘rt yillik boshlang‘ich sinf uchun yangi matematika kursini amalga oshirish, birinchi navbatda, olti yoshli bolalarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda talab qilindi. Ma’lumki, komponentlarning biri sifatida kognitiv ehtiyoj juda aniq va o‘rganish uchun deyarli hech qanday ijtimoiy motivlar mavjud emasligiga qaramay, hozirgi kunda ko‘pchilik bolalar hali o‘rganish uchun motivatsiyaga ega emaslar. Olti yoshli bolalarning intellektual va nutq sohasini tavsiflab, umumlashtirish jarayonining zaif rivojlanishi va rivojlanmagan nutqini ta’kidlash kerak. Sensomotorli muvofiqlashtirishning past darajasi psixofiziologik jihatdan bola hali yetilmagan, mayda motorcha hali rivojlanayotganligini ko‘rsatadi. Ko‘plab psixologik va pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, olti yoshli bolalar va yetti yoshli bolalarning aksariyat qismi maktabga psixologik tayyorgarlikni ta’minlaydigan psixologik rivojlanishga muhtoj. Aynan shu maktab ta’limining muvaffaqiyatini belgilaydi. Bundan kelib chiqadiki, olti yoshli bolalarni o‘qitishning asosiy maqsadi ularning maktabga to‘liq psixologik tayyorgarligini maqsadli shakllantirishdir, bu o‘quvchining aniq ichki pozitsiyasi, o‘quv motivatsiyasi, nisbatan rivojlangan umumlashtirish jarayoni, nutqni rivojlantirish va bolaning rivojlangan sensomotor koordinatsiyasi bilan tavsiflanadi.

Tahlillar va natijalar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining moqdor tushunchalari asosida o‘quv faoliyatini shakllantirish jarayonida biz ushbu faoliyatni rag‘batlantirish uchun quyidagi metodik yondashuvlardan foydalanamiz.

1. Tushunchaga yoki harakat usuliga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish. V.V. Davidov ta’kidlaganidek, maktab hayotining boshida bola hali ta’lim faoliyati uchun psixologik asos sifatida nazariy bilimlarga ehtiyoj sezmaydi. Bu ehtiyoj bolada tegishli ta’lim vazifalarini hal qilishga qaratilgan o‘qituvchi bilan birgalikda eng oddiy ta’lim harakatlarini amalga oshirishda u tomonidan boshlang‘ich nazariy bilimlarni haqiqiy o‘zlashtirish jarayonida paydo bo‘ladi.

2. Muvaffaqiyatli vaziyatni yaratish. Bola o‘z-o‘ziga ishonchni boshdan kechirgan holda, kichik bo‘lsa-da, shaxsiy muvaffaqiyat hissi bilan yashaydigan, ta’limga bunday yondashuvni amalga oshirish bizning matematika kursimizning mohiyatidir. Bolaning sevgiga bo‘lgan ehtiyoji, o‘zini o‘zi qadrlashi, o‘zining muhimligini his

qilishi, o‘ziga ishonch hissi va boshqalarning ijobiy bahosi – bularning barchasi insonning eng muhim ehtiyojlaridan biri va shaxs sifatida o‘zini anglashdir.

3. Ertak syujetlaridan foydalanish. Ta’lim motivatsiyasini shakllantirish uchun avval bolani ajoyib ertak bilan jalb qilish, so‘ngra unga matematikaga berilib ketishiga yordam berish kerak. SHuning uchun, dastlab, bolalar yoshligida, qiziqish bilan bolani ishlashga majbur qiladigan ma’lum bir ertak yoki haqiqiy hikoyadan foydalanish kerak.

4. Emotsional fon yaratish. Kattalik tushunchasini o‘rgatish bo‘yicha o‘quv materiali bilan birgalikdagi ishni tashkil qilish, bolaning his-tuyg‘ulari va emotsiyalarini bog‘lash uchun, fikrlashni o‘rgatish, intuitsiya va tasavvurni rivojlantirish faqat his-tuyg‘ular kiritilganda mumkin.

5. Darsdagi o‘yin vaziyatlari. O‘yinlardan foydalanish nafaqat emotsional, motivatsion vazifani, balki mazmunli vazifani ham o‘z ichiga oladi.

6. Hayotiy tajriba va ijtimoiy sharoitlarni hisobga olish. Ta’lim dasturlari bolaning hayotiy tajribasiga mos kelishi kerak, aks holda unda ta’lim motivatsiyasi rivojlanmaydi. SHuning uchun, bolaning maktabgacha ta’lim tajribasi kattaliklarni o‘rganish mantig‘iga kiritilishi va undan ajralmasligi kerak. Bolaning o‘z harakatlarini namoyish etish istagini hisobga olmaslik mumkin emas, ochig‘ini aytganda, shu vaqtning o‘zida juda kichik bo‘lgan muvaffaqiyatlarini kamsitmasdan, bolaning o‘z sa'y-harakatlarini namoyish etish istagini e'tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi.

Bola ishlashi mumkin bo‘lgan formuladagi harflar o‘rniga raqamlarni o‘ylab topish bo‘yicha topshiriqlar barcha bolalarni muvaffaqiyatli qilish imkonini beradi, barcha bolalarga keyinchalik bilim asosiga aylanadigan ko‘nikmalarni mustahkamlash yoki egallash imkoniyatini beradi.

Xulosalar.

Kattaliklarni o‘rganish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv faoliyatini shakllantirish quyidagilarni talab qiladi: ushbu faoliyatni rag‘batlantiradigan maxsus metodik vositalar; o‘quv yoki o‘quv-amaliy vazifalarni o‘rnatish va bajarishga olib keladigan o‘quv vaziyatlari tizimini yaratish; bolalarda nazorat va baholashning o‘quv harakatlarini shakllantiradigan metodik usullarni ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Tursunboevich, A. T. (2024). TASKS FOR THE FORMATION OF EDUCATIONAL ACTIVITY IN PRIMARY CLASSES. *Miasto Przyszłości*, *54*, 6-9.

2. Давыдов В.В. Психологическая теория учебной деятельности и методов начального обучения, основанных на содержательном обобщении. - Томск: «Пеленг», 1992. - 133 с.

3. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. - М.: ИНТОР, 1996.-544 с.

4. Дусавицкий А.К. Развивающее обучение: теория и практика: Статьи. - Харьков, 2002. - 146 с.

5. Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения: опыт теоретического и экспериментального исследования. - М.: Педагогика, 1986. - 239 с.

6. Tashkhonov, A. T. (2021). GENERAL DIDACTIC BASIS OF AN INTEGRATED APPROACH TO THE ORGANIZATION OF TEACHING IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONSGENERAL DIDACTIC BASIS OF AN INTEGRATED APPROACH TO THE ORGANIZATION OF TEACHING IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. *Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka*, *1*(2).

7. Царева СЕ. Нестандартные виды работы с задачами на уроке как средство реализации современных педагогических концепций и технологий // Начальная школа. - 2004. - № 4. - С 49-56

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-5]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ilyosbek Bozorbayev
A.Avloniy nomidagi pedgogik mahorat milliy instituti
e-mail: ibozorbayev@mail.ru

UDK: 37.091.33:371.13

KONTEKSTLI YONDASHUV ASOSIDA PEDAGOGDA METODIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kontekstli yondashuv asosida pedagoglarning metodik kompetentligini rivojlantirish masalasi yoritilgan. Metodik kompetentlikning tarkibiy qismlari, ularni shakllantirishda muhim omillar, zamonaviy ta'lim texnologiyalari va muammoli o'qitish usullarining o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, kontekstli o'qitish orqali pedagoglarning nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini uyg'unlashtirish, ularning reflektiv faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari asosida metodik kompetentlikni rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishda muhim omil ekanligi asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar*: kontekstli yondashuv, metodik kompetentlik, pedagogik texnologiyalar, muammoli o'qitish, refleksiya, ta'lim sifati.*

Ильясбек Бозорбаев
Национальный институт педагогического мастерства имени А.Авлони

РАЗВИТИЕ МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У ПЕДАГОГА НА ОСНОВЕ КОНТЕКСТНОГО ПОДХОДА

Аннотация. *В данной статье рассматривается проблема развития методической компетентности педагогов на основе контекстного подхода. Проанализированы структурные компоненты методической компетентности, важные факторы её формирования, роль современных образовательных технологий и проблемного обучения. Также раскрываются возможности интеграции теоретических знаний и практических навыков педагогов через контекстное обучение и развития их рефлексивной деятельности. На основе результатов исследования обосновано, что развитие методической компетентности является важным фактором повышения качества образования.*

Ключевые слова: *контекстный подход, методическая компетентность, педагогические технологии, проблемное обучение, рефлексия, качество образования.*

Ilyasbek Bozarbayev
National Institute of pedgogic skills named after A.Avloni

DEVELOPMENT OF METHODOLOGICAL COMPETENCE IN AN EDUCATOR ON THE BASIS OF A CONTEXTUAL APPROACH

Abstract. *This article explores the issue of developing teachers' methodological competence based on a contextual approach. It analyzes the structural components of methodological competence, the key factors contributing to its formation, and the role of modern educational technologies and problem-based teaching methods. The paper also highlights the integration of theoretical knowledge and practical skills of teachers through contextual teaching and the development of their reflective activities. The research findings substantiate that enhancing methodological competence is a significant factor in improving the quality of education.*

Keywords: *contextual approach, methodological competence, educational technologies, problem-based teaching, reflection, quality of education.*

Kirish.

Pedagogda shakllangan metodik kompetentlik ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash va ta'lim oluvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshirishda muhim sanaladi. Ta'lim sifati bevosita pedagogning kasbiy mahorati va metodik yondashuvlariga bog'liq bo'lib, bunda kontekstli yondashuv pedagogik jarayonda nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash, muammoli ta'lim usullaridan foydalanish va ta'lim ouvchilarni faollikka undash orqali ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Pedagogda metodik kompetentlikni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar vositasida nafaqat an'anaviy bilimlarni yetkazish, balki ta'lim oluvchilar bilan interaktiv muloqot qilish, ularning fikrlash qobiliyatini shakllantirish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiriladi. Kontekstli yondashuv nazariy bilimlarni hayotiy vaziyatlar bilan bog'lashga xizmat qiladi, ya'ni ta'lim oluvchilarning o'quv fan asoslarini chuqurroq tushunishiga va olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishiga yordam beradi. Ushbu yondashuvning asosiy afzalliklaridan biri shundaki, u pedagog va ta'lim oluvchilar o'rtasida hamkorlikni kuchaytiradi, ta'lim jarayonini interaktiv shaklga keltiradi va kasbiy rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, muammoli ta'lim usullaridan foydalanish orqali pedagog ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi va ularga turli vaziyatlarda optimal yechim topish ko'nikmalari shakllanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Pedagogik kasbiy kompetentligida metodik kompetentlik muhim o'rin tutadi. Metodik kompetentlik quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat: *o'quv fani bo'yicha (predmetli) kompetentlik* (pedagogning o'z mutaxassislik fanini mukammal bilishi); *psixologik-pedagogik kompetentlik* (talabalar bilan samarali hamkorlikda ishlash va ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish); *metodik kompetentlik* (o'quv jarayonini tashkil etish va takomillashtirishga doir bilim, ko'nikmalar majmuasi).

Metodik kompetentlikning tarkibiy jihatlari turli tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan**.** I.Y.Kovalyova ta'kidlashicha, metodik kompetentlik pedagogning ishbilarmonlik, shaxsiy va axloqiy fazilatlarini o'z ichiga olgan integrativ tavsifga ega bo'lib, metodologik, metodik va tadqiqot kompetentlikni o'z ichiga oladi [1].

Y.A.Nagrelli metodik kompetentlikni kasbiy kompetentliging ajralmas qismi deb hisoblab, uni quyidagi jihatlar bilan bog'laydilar: ilmiy-nazariy bilim va ko'nikmalarning yetukligi; talabalarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish; kasbiy faoliyat samaradorligiga nisbatan qiziqish va motivatsiyaning mavjudligi [2].

A.L. Zubkov metodik kompetentlikning quyidagi uch jihatiga etibor qaratgan: metodik tafakkur (pedagogning mavjud bilimlarni metodik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish mahorati); metodik madaniyat (o'quv jarayonini sifatli tashkil etishga yo'naltirilgan ijodiy yondashuv); metodik ijodkorlik **(**talabalarni fanga qiziqtira olish va o'qitish jarayonida yangi metodlarni ishlab chiqish ko'nikmasi) [3].

O.N. Igna metodik kompetentlik tuzilishini quyidagi tarkibiy qismlarni ajratib ko'rsatadi: metodik bilimlar va ularni amaliyotda qo'llash qobiliyati; metodik atamalarni bilish va tushunish; tanqidiy fikrlash va tahliliy yondashuv; didaktik va ijodiy qobiliyatlar; o'quv-metodik masalalarni hal qilish tajribasi [4].

I.Y. Malova metodik kompetentlikni pedagogning bilim, ko'nikma va malakalarini tizimli egallash jarayoni sifatida ko'rib chiqadi. Shu bilan birga, ushbu kompetentlikning rivojlanishi pedagogning shaxsiy fazilatlari va kasbiy yondashuvlariga ham bog'liq ekanligini ta'kidlaydi [5].

Pedagogda metodik kompetentligi pedagog faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, u uzluksiz ta'lim tamoyillariga asoslangan holda rivojlanadi va pedagogda kasbiy rivojlanish tizimidagi metodik, ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-tarbiyaviy faoliyatining yaxlitligi hamda uyg'unligini aks ettiradi. Mazkur kompetentlikning rivojlanishi pedagogning o'z kasbiy faoliyatiga tanqidiy yondashishi, innovatsion metodlarni samarali o'zlashtirishi va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgani ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishi nazarda tutadi.

Natijalar.

Kontekstli o'qitish texnologiyalarini keng amaliyotga tatbiq etish pedagoglarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishga muhim sanaladi. Bu yondashuv, ayniqsa, muammoli ta'lim usullarini qo'llash orqali pedagoglarga talabalar fikrlash jarayonini faollashtirish imkonini yaratadi, bu esa talabalar tahliliy va ijodiy yondashuvlarini rivojlantirishini ta'minlaydi.

Uzluksiz ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, elektron ta'lim platformalari va turli innovatsion metodlar, interaktiv seminar-treninglar va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishli pedagoglarning metodik kompetentligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bu jarayonda refleksiv (lotincha "reflixio"-ortga nazar solish) faoliyat muhim rol o'ynaydi, chunki u pedagoglarga o'z tajribasini tahlil qilish va samaradorligini baholash imkonini beradi.

Olib borilgan pedagogik tadqiqot ishida pedagogda metodik kompetentligini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillarga pedagogning munosobatlari savolnoma va suhbat asosida o'rganildi (1-jadval).

1-jadval

Pedagogning metodik kompetentligini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillar

Kasbiy rivojlanishingiz uchun ahamiyatli ko'nikmani baholash		Izohli javoblar
1	Davlat ta'lim standartlari (DTSt) talablarini o'rganish	
2	Ta'lim va tarbiy jarayonini rivojlantirishga oid turli (Farmonlar, Qarorlar va boshqa) me'yoriy hujjatlarga asoslanib faoliyat olib borish	
3	O'qitilayotgan fan bo'yicha dasturiy-metodik va normativ hujjatlar tahlil qilish	

4	Fan bo‘yicha zamonaviy bilimlarni o‘zlasahtirish	
5	AKT va boshqa pedagogik texnologiyalarni o‘rganish	
6	Talabalar intizomi va xulq-atvori bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish	
Kasbiy tadbirlarning metodik kompetentikning rivojlanishiga ta’sir darajasini baholash		
1	Malaka oshirish kurslari (Ofline, Online) va malaka oshirish dasturlari	
2	Trening seminarlari, konferensiyalar va boshqalar	
3	Hamkasblarning darslarini kuzatish	
4	Ilmiy pedagogik loyihalarda ishtirok etish	
5	O‘z ishlanmalarini ommalashtirish	

Ushbu so‘rovnoma natijalari bizga pedagoglarning metodik kompetentligini rivojlantirishga ta’sirini qiluvchi omillarga e’tibor qaratish lozimligi, shuningdek, o‘qituvchilarni malaka oshirish jarayoniga jalb etish motivlarini aniqlashga yordam beradi. Ushbu tadqiqot natijalari malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning maqsadlarini aniqlashtirishga va ularga individual yondashuvni shakllantirishga xizmat qilgan.

Olib borilgan pedagogik tadqiqotimiz davomida pedagoglardada metodik kompetentlikni baholashga qaratilgan savolnoma tuzilmasi ishlab chiqildi va uning asosida pedagoglarning o‘z pedagogik faoliyatini rejalashtirish, amalga oshirish va tahlil qilish jarayonlari o‘rganildi (2-jadval). Ushbu metodikaga ko‘ra pedagogdan savollarga javob berishda o‘zi tanlagan javobga mos bo‘lgan ustunlardan biriga belgi “+” qo‘yish so‘raladi: 1-qiyinchiliklarga duch kelganimda uni hal qilishda hamkasblarim bilan maslahatlashaman; 2- muammolarni o‘zim qisman hal qila olaman; 3- muammolarni mustaqil o‘zim hal qila olaman.

Ushbu jadval pedagoglarning metodik kompetentligini baholashga qaratilgan bo‘lib, pedagoglarning o‘z pedagogik faoliyatini rejalashtirish, amalga oshirish va tahlil qilish qobiliyatlarini aks ettiradi

2-jadval

Pedagogning metodik kompetentligini aniqlsh bo‘yicha so‘rovnoma

№	Ko‘rsatkichlar	1	2	3
1	Talabalarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini loyihalash			
2	Ta’lim maqsadlari va vazifalariga mos holda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o‘qitish metodlarini o‘quv jarayonida samarali qo‘llash			
3	Talabalarning individual va ularning psixologik xususiyatlariga mos ta’lim strategiyalarini tanlash			
4	Talabalarning mustaqil ishlashi va tadqiqot olib borish malakalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar ishlab chiqish			
5	Talabalarning bilim darajasini tahlil qila olasiz va ularning yutuqlarini baholash			
6	AKT va raqamli resurslardan foydalanib, o‘qitish jarayonini tashkil etish			
7	AKT vositalaridan foydalanib metodik kompetentligini oshirish va o‘z tajribasini ommalashtirish			
8	O‘quv materiallarini talabalarga tushunarli va qiziqarli tarzda yetkazish uchun turli metodik usullardan foydalana olasiz.			
9	Talabalar erishgan natijalarning (fan bo‘yicha va fanlararo kompetensiyalar) ta’lim maqsadlariga muvofiqligini baholash			
10	Talabalarning motivatsiyasini oshirish uchun o‘quv jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish			
11	Dars jarayonida muammoli ta’lim usullarini qo‘llash olish			
12	Kasbiy faoliyatda doimiy takomillashuvga intilish va yangiliklarni amaliyotda qo‘llash			

Metodik kompetentlik ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri bo‘lib, u didaktik maqsadlarning aniqligi, o‘quv jarayonini loyihalash qobiliyati, innovatsion metod va texnologiyalardan foydalanish darajasi, ta’lim natijalarini baholash, individual yondashuvni qo‘llash, muammolarni hal qilish kompetensiyasi, ijodiy va innovatsion fikrlash qobiliyatlari kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi.

Metodik kompetentligini baholashning ilmiy-metodologik asoslari pedagogika va ta’lim nazariyasining ilg‘or yondashuvlariga tayanadi. Jumladan, kontekstli o‘qitish metodologiyasi pedagogning amaliy faoliyatga yo‘naltirilganligini, real pedagogik vaziyatlar asosida kompetensiyalarni shakllantirishni ta’minlaydi. Bunday yondashuv pedagoglarning nazariy bilimlarini real ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, muammoli o‘qitish metodologiyasi ham metodik kompetentlikni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Bu metodologiya muammolarni aniqlash, ularni hal qilish strategiyalarini ishlab chiqish va muayyan didaktik yondashuvlarni shakllantirishga qaratilgan. Shu sababli, jadvalda aks ettirilgan ko‘rsatkichlar pedagogning ushbu metodologiyalardan qay darajada samarali foydalana olishini aniqlashga xizmat qiladi.

Mazkur so‘rovnomaning ahamiyati shundaki, u pedagoglarning faoliyatini tahlil qilish, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, shuningdek, kasbiy rivojlanish bo‘yicha yo‘nalishlarni belgilash imkonini beradi. Metodik kompetentlik ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilish faoliyatini samarali tashkil etish hamda individual ta’lim yo‘nalishlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, ushbu jadvalda aks ettirilgan mezonlar pedagogning didaktik va metodik tayyorgarlik darajasini baholashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Xususan, didaktik maqsadlarning aniqligi pedagogning dars rejasini ishlab chiqish va uni amalga oshirishdagi samaradorligini aks ettiradi. O‘quv jarayonini loyihalash qobiliyati esa pedagogning ta’limni tashkil etish bo‘yicha strategik qarorlar qabul qilish qobiliyatini belgilaydi.

Muhokama.

Pedagoglarning motivatsiyasi va metodik kompetentligini baholash natijalari tadqiqotning muhim qismini tashkil etadi. Tadqiqot davomida olib borilgan so‘rovnoma, test, trening darslari natijalari asosida to‘plangan ma’lumotlarni tahlil qilish orqali malaka oshirish dasturlarining samaradorligi baholanadi hamda pedagoglarning metodik kompetentligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi (malaka oshirish jarayonida vaqt o‘lchovidagi ziddiyatlar, o‘quv resurslarining cheklanganligi, malaka oshirish kurslarining amaliyotga moslash). Shuningdek, malaka oshirish jarayonida individual yondashuvni joriy etish va pedagoglarning ehtiyojlariga mos kurslar ishlab chiqish samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Xususan, pedagoglarning individual kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarini hisobga olgan holda ularning metodik kompetentligini oshirish dasturlarini shakllantirish muhimdir. Shu bilan birga, malaka oshirish tizimining raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi ham pedagoglarning o‘z-o‘zini rivojlantirishiga keng imkoniyat yaratadi. Masofaviy ta’lim va onlayn resurslardan samarali foydalanish orqali malaka oshirish jarayonining moslashuvchan va qulay bo‘lishiga erishish mumkin.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Pedagoglarning metodik kompetentligini oshirishda kontekstli o‘qitish yondashuvini tatbiq etish samarali strategiyalardan biri hisoblanadi. Chunki kontekstli o‘qitish orqali Pedagoglar real pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu sababli, malaka oshirish dasturlariga kontekstli o‘qitish elementlarini kiritish va Pedagoglarning o‘z kasbiy faoliyatida bu yondashuvdan foydalanishiga imkon yaratish zarur.

Xulosa.

Pedagogning metodik kompetentligini kontekstli yondashuv asosida rivojlantirish ta’lim jarayonining sifatli tashkil etilishiga, nazariy bilimlarning amaliyot bilan uyg‘unlashuviga va ta’lim samaradorligining oshishiga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, metodik kompetentlikning tarkibiy qismlarini chuqur o‘zlashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali qo‘llash va muammoli ta’lim usullarini amaliyotga joriy etish pedagog faoliyatining innovatsion rivojlanishiga olib keladi.Shuningdek, pedagoglarda reflektiv faoliyatni shakllantirish, ularning o‘z ishini tahlil qilish va doimiy takomillashtirishga intilishini rag‘batlantiradi. Bu esa o‘z navbatida, uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonining ajralmas qismiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ковалева И.Ю. развитие научно-методической компетентности педагогов в условиях образовательного выбора: автореф. дис…канд. пед. наук. мурманск, 2007. – 21 с.

2. Нагрелли Е.А. формирование методической компетентности учителей в системе повышения квалификации: автореф дис. … канд. пед. наук. кемерово, 2009. – 25с.

3. Зубков А.Л. развитие методической компетентности учителей в условиях модернизации общего образования: автореф. дис. ... канд. пед. наук. екатеринбург, 2007. – 19 с.

4. Игна О.Н. структура и содержание методической компетентности учителя иностранного языка // ярославский педагогический вестник. №1. 2010. – с. 90–94.

5. Малова И.Е. сущность и уровни методической компетентности учителя математики // ярославский педагогический вестник. 2006. №4 (49). – с. 107–109.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-5]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Boltaboyev Xamidullo Xabibullayevich
Namangan davlat universiteti professori
Email:xamidulloboltaboyev@mail.com
Gulomjonova Maxliyo Gulomjon qizi
Business and Science universiteti talabasi
Email:gulomjonovamaxliyo33@mail.com

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA JISMONIY TARBIYA DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK NAZORATNING AHAMIYATI

Annotatsiya: *Hozirgi kunda texnika va axborot texnologiyasining rivojlanishi tufayli o'quvchilarni taьlim jarayoniga jalb qilish muammosi eng qiyin muammolarda bo'lib qolmoqda. Chunki ommaviy axborot vositalari va kompyuter o'yinlari o'quvchilar uchun qiziqarliroq bo'lib, o'ziga qattiq jalb qiluvchi omil sifatida ularni taьlim-tarbiyadan birmuncha chetlatmoqda. Bunday holatda pedagoglarimiz oldida taьlim jarayonini undan ham qiziqroq tarzda tashkil qilish muammosi turadi. Demak, biz ana shu zamonaviy texnologiyalardan foydalanib dars o'tish orqali o'quvchilarni taьlim jarayoniga jalb qila olish imkoniyatiga ega bo'lamiz.*

Kalit so'zlar: *pedagogik nazorat, xronometraj, pulsometriya, gigiyena, sport zallari va sport maydonlari, jihozlar, anjomlar, matlar (gilamlar).*

Болтабоев Хамидулло Хабибуллаевич
профессор Наманганского государственного университета
Ғуломжонова Махлиё Ғуломджон кизи
студент университета бизнеса и наука

ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО НАДЗОРА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ УРОКОВ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Аннотация: *Сегодня, в связи с развитием техники и информационных технологий, проблема вовлечения студентов в учебный процесс остается одной из самых сложных проблем. Потому что средства массовой информации и компьютерные игры более интересны для студентов и как сильный фактор притяжения несколько отстранены от образования. В этом случае перед нашими педагогами встает задача еще более интересной организации учебного процесса. Таким образом, мы сможем вовлечь студентов в процесс обучения, проводя занятия с использованием этих современных технологий.*

Ключевые слова: *педагогический контроль, хронометраж, пульсометрия, гигиена, спортивные залы и спортивные площадки, оборудование, инвентарь, маты (ковры).*

Boltaboev Khamidullo Khabibullaevich
Professor of Namangan State University
Gulomzhonova Makhliyo Gulomjon qizi
University Business and Science student

THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL SUPERVISION IN IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF PHYSICAL EDUCATION LESSONS IN SECONDARY SCHOOLS

Annotation: *Today, due to the development of technology and information technology, the problem of involving students in the educational process remains one of the most difficult problems. Because the media and computer games are more interesting for students and as a strong factor of attraction are somewhat removed from education. In this case, our teachers are faced with the task of organizing the educational process even more interestingly. In this way, we will be able to involve students in the learning process by conducting classes using these modern technologies.*

Key words: *pedagogical control, timing, pulse monitoring, hygiene, sports halls and sports grounds, equipment, inventory, mats (carpets).*

Kirish.

Jismoniy tarbiya darsining samarasi ko‘pincha o‘qituvchining tuzgan rejasini hayotiyligi, shug‘ullanuvchilar faoliyatini tashkillash uchun tanlagan usuliyati va uslublari mavjud jihozlar va sport anjomlaridan, texnik vositalardan, sport inshoatlaridan effektli foydalana olish, tem’eratura, iqlim sharoiti, o‘kuvchilarning tayyorgarlgi, ularning yoshi, individual xususiyatlarini hisobga olib effektli foydalana olish bilan bog‘liq. Umumiy ta’lim maktablari, kasb-hunar va akademik litseylar, gimnaziyalar, kollejlar, oliy o‘quv yurtlari va boshqa ta’lim muassasalarida o‘tkaziladigan jismoniy tarbiya darslarida jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish mashg‘ulotlarida ishtirok etayotgan o‘quvchilarning faoliyati boshqariladi.

Adabiyotlar tahlili.

Jismoniy tarbiya darsining samarasi ko‘pincha o‘qituvchining tuzgan rejasini hayotiyligi, shug‘ullanuvchilar faoliyatini tashkillash uchun tanlagan usuliyati va uslublari mavjud jihozlar va sport anjomlaridan, texnik vositalardan, sport inshoatlaridan effektli foydalana olish, temperatura, iqlim sharoiti, o‘quvchilarning tayyorgarlgi, ularning yoshi, individual xususiyatlarini hisobga olib effektli foydalana olish bilan bog‘liq.

Ushbu muammo yuzasidan Минаев Б. Н., Шиян В.М. (1989), Ашмарин Б.А (1990), Ваунбаун Я.С (1991), Mirodilov M.A (1991), Salamov R.S, Ro‘zioxunova M.M (1995), Xo‘jaev F., Usmonxo‘jaev T. (1996), Boyboboev B.G‘ (1999), Холодов Ж.К, Кузнетцов В.С (2000), Abdullaev A., Xonkeldiev Sh.X (2001), Qodirov B (2001), Mavlanova R.N., To‘raeva A., Xoliqberdiev K (2001), Maxkamjanov K.M., Salamov R.S (2008), Boltaboyev X.X (2022) yillarda ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Adabiyotlar taxlilidan mag‘lum bo‘ldiki, hozirgi kunda jismoniy tarbiya darslarida pedagogik nazoratga eg‘tibor berilgan bo‘lsada lekin xanuzgacha ham uning turlaridan amaliyotda foydalanish yetarli darajada emas.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqola xronometrajdan olingan ma’lumotlar darsninng pedagogik analizini ma’lum darajada chuqurlashtiradi, chunki har hil faoliyat uchun ketadigan vaqtni ratsional sarflashni imkonini beradi.

Natijalar va ularning tahlili.

Hozirgi kunda texnika va axborot texnologiyasining rivojlanishi tufayli o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga jalb qilish muammosi eng qiyin muammolardan bo‘lib qolmoqda. Chunki ommaviy axborot vositalari va kompyuter o‘yinlari o‘quvchilar uchun qiziqarliroq bo‘lib, o‘ziga qattiq jalb qiluvchi omil sifatida ularni ta’lim-tarbiyadan birmuncha chetlatmoqda. Bunday holatda pedagoglarimiz oldida ta’lim jarayonini undan ham qiziqroq tarzda tashkil qilish muammosi turadi.

Demak, biz ana shu zamonaviy texnologiyalardan foydalanib dars o‘tish orqali o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga jalb qila olish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Qachonki ta’lim oluvchilar bilim olishga qiziqsalar, ular uchun bu jarayon zo‘riqtiruvchi xarakterga ega bo‘lmaydi va ular ta’lim olishdan zerikmaydilar. pirovard natijada esa, o‘quvchilar bilim sifati yuqori bo‘lishiga erishish mumkin.

Olingan ma’lumotlarni hisoblashda10 sekunddagi tomir urishining natijasini oltiga ko‘paytirib, protokolning beshinchi grafasiga, oltinchi grafaga pulsning 1 foizlarda o‘zgarishi yoziladi. Bu qudagicha amalga oshiriladi. Dastlabki, tinch holatda o‘lchangan puls 100 foiz deb olinadi. Ikkinchi marta o‘lchangan pulsning dastlabkisiga nisbatan necha foiz oshganligini aniqlash uchun proportsiya tuzilib, ishlanadi. Masalan, protokoldagi tinch holatda o‘lchangan puls 1 minutda 90 marta ikkinchisi 103 marta bo‘lsin.

Shunga qarab proportsiya tuziladi.

90 - 100 %

103 - X $x = \dfrac{103 \bullet 100}{90} = 114{,}4\ foyiz$

Uchinchisi – 108 marta, yana poportsiya tuzamiz.

90 - 100%

$$x = \frac{108 \bullet 100}{90} = 120 \quad foyiz \ va \ x.k.$$

Navbatdagi vazifa bu olingan ma’lumotlar asosida tomir urishining egri chiziq grafigini tuzish

Grafikning vertikal o‘qi tomir urishini absolyut ko‘rsatkichlari, gorizontal o‘qi bo‘yicha darsning 3 minutlik bo‘limlarida davom etish vaqti ko‘rsatiladi. ‘rotokoldagi tomir urishini soni va vaqt ko‘rsatkichlaridan foydalanib, koordinatalardagi nuqtalar belgilanadi, shundan so‘ng nuqtalar birlashtirilib, kuzatish olib borilgan o‘quvchining dars davomidagi tomir urishining egri chizig‘i aniqlanadi.

Keyingi bosqichda, yuqoridagi xujjatlarga asoslanib, darsdagi og‘irlikning yozma tahlili bajariladi. Bunda quydagilar yoritilishi kerak:

Darsning vazifalari, darsning turi, o‘quvchilarning darsgacha bo‘lgan faoliyati. Dars davomida tomir urishining o‘zgarishi va uning sabablari, darsning ayrim momentlaridagi va butun dars davomidagi og‘irlikning maqsadga muvofiqligi. Darsning oxirida tomir urishining soni va uning jismoniy darsdan keyin 5 minut davomida tiklanishi. Tahlilni yakunida kuzatuvchi o‘quvchilarning darsdagi nagruzkasi bo‘yicha o‘zining mulohazalarini, takliflarini yozishi kerak.

Tomir urishini o‘lchash ‘rotokoli, tomir urishining egri chiziq grafigi va olingan ma’lumotlarning tahlili qo‘shilgan holda bir butun xujjatini tashkil etadi.

To‘liq tugallangan xujjat kuzatuvchi tomonidan imzolanadi va darsni o‘tgan o‘qituvchiga tanishib chiqish

uchun beriladi. U o‘z navbatida hujjat bilan tanishib, o‘zining mulohazalarini bildiradi va hujjatga imzo chekadi.

Darsning asosiy qismida kuzatiluvchi o‘quvchining tomir urishi ko‘paydi. Balandlikka va undan ‘astka yugurishda 180 martagacha ko‘tariladi. Darsning 18 daqiqasida kuzatiluvchi o‘quvchining tomir urishi o‘quvchining darsga tayyorgarlik qismdagi 8 mashq, ya’ni nafas roslashdan keyingi tomir urishiga qaraganda, ma’lum miqdorda ko‘’roq. 21 daqiqada esa kuzatiluvchi o‘quvchining tomir urishi 91%ga ko‘paydi. Bunda o‘quvchilar 4 kolonnadan 1 kolonnaga saflanish mashqlarini bajarishdi. 28 daqiqada tomir urishi 133%ga ko‘paydi. Bunda basketbol elementlari bajarilgandan 31 daqiqani olib qaraydigan bo‘lsak, bu yerda o‘quvchilarning balandlikka va undan pastga yugurish , yurish tomir urishi juda ham balandda. Bundan ko‘rinib turibdiki, bu mashqni o‘quvchilar organizmiga ta’siri juda katta. Shuning uchun tomir urishi ham yuqori. 35 daqiqada o‘quvchining tomir urishi ancha kamaygan; 1 daqiqada 156 matra urmoqda. Bu ‘aytda o‘quvchilar maydon bo‘ylab yura boshladilar. 34 daqiqada esa o‘quvchining tomir urishi 1 daqiqada 180 zarbaga yetdi. Bunda o‘quvchilar yurishdan yugurishga o‘tishgan payti edi. Yugarganda yurak ishi tezlashib, tomir urishi ham tezlashgan, bu esa maqsadga muvofiqdir. 37 minutda yugurishdan keyin yurib-yurib va saflanishgan, bunda esa o‘quvchining tomir urishi 1 minutda 162 marta bo‘lgan.

Balandlikka va undan ‘astga yugurganda yurakka katta nagruzka tushib uni tezlashtiradi, ya’ni yurakgning kon salqib chiqarishi kuchayadi, organizm faolligi ortib, tomir urishi xam tezlashadi. 33 daqiqada o‘quvchilar yurishga o‘tdilar, yugurganlaridan keyin yurish vaqtida tomir urish sekinlashidi, ya’ni o‘quvchilar organizmi sal bo‘lsa ham tinchlantirish va keyingi mashqni berish kerak. Darsning asosiy qismida kuzatiluvchi o‘quvchining tomir urishi tayyorgarlik qismiga qaraganda,ma’lumot miqdori yuqori bo‘ldi. Yakunlovchi qismida berilgan xarakatli o‘yindan keyin o‘quvchining timir urishi 120 taga yetdi. O‘quvchilar uchun tanlangan xarakatli o‘yin maqsadga muvofiqdir.

Xulosa.

O‘tkazilgan ilmiy tadqiqot ishlardan, adabiyotlarni taxlilidan va pedagogik kuzatishlardan ma’lum bo‘ldiki, xozirgi kunda biz ko‘rib chiqqan umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi 13 yoshli o‘quvchilari bilan o‘tkazilayotgan jismoniy tarbiya darslarida pedagogik nazorat olib borish sifati qo‘yilgan talabga yetarlicha javob bermaydi.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni taxlillaridan ayon bo‘ldiki, tajriba guruxi bolalarini mashg‘ulotlarida pedagogik nazorat olib borilishi natijasida ularning sog‘lig‘ini mustaxkamlanishi bilan birgalikda jismoniy tayyorgarligi yaxshilandi.

Jismoniy tarbiya darslari jarayonida pedagogik nazorat katta ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Tajriba gurux bolalari bilan olib borilgan suxbatlardan aniqlandiki, jismoniy tarbiya bo‘yicha nazariy bilimlar berib borilsa ularda mashg‘ulotlarga bo‘lgan qiziqish ortadi.

Tajriba gurux bolalari bilan o‘tkazilgan tadqiqot ishlaridan aniqlandiki, xar bir sinfda jismoniy tarbiya mutaxassisi bilan ta’minlansa avvalo maktabdagi jismoniy tarbiya ishlari yo‘lga qo‘yiladi, natijada o‘quvchilarning jismoniy tarbiyaga bo‘lgan qiziqishlari ortadi.

O‘tkazilgan ishlardan ko‘rinib turibdiki, jismoniy tarbiya darslarini bolalarning yosh xususiyatlariga mos xolatda o‘tkazilishi bolalarning jismoniy tayyorgarligini yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdullaev A., Xonkeldiev Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. –Farg‘ona: 2001. -279 b.
2. Ашмарин Б. А. Теория и методика физического воспитания. –М.: Просвещение, 1990. - 257 с.
3. Boyboboev B.G. Jismoniy tarbiya darslarida 11-14 yoshli o‘g‘il bolalar uchun nagruzkani me’yorlash. Diss…. ped. fan. nom. – Toshkent: 1999. -159 b.
4. Вайнбаум Я.С. Дозирования физических нагрузок школьников. –Москва: Просвещения, 1991. -64 с.
5. Миняев Б. Н., Шиян Б.М. Основы методики физического воспитания школьников. –М.: Просвещение, 1989. -220 с.
6. Холодов Ж.К., Кузнецов В.С.. Теория и методика физического воспитания и спорта. –М.: Академия, 2000. -480 с.
7. Xo‘jaev F., Usmonxo‘jaev T. Boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya darslari. 1-sinf uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996. -183 b.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-5]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Gaziyev Quyosh Azamatovich
Namangan davlat universiteti
Raqamli ta'lim texnologiyalari kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: hilol200218@gmail.com

TA'LIM JARAYONIDA BULUT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Annotasiya. *Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi oliy ta'limning an'anaviy tizimini o'zgartirishga olib keldi. Ta'lim jarayonida Internet resurslaridan foydalanish uzoq vaqtdan beri turli darajadagi va profildagi ta'lim muassasalari uchun odatiy holga aylangan. Masofaviy ta'limning rivojlanishiga yangi ta'lim platformalari va xizmatlarining doimiy rivojlanishi yordam beradi. Maqolada Google Classroom xizmati imkoniyatlaridan foydalanib o'quv jarayonida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish masalasi o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *o'quv jarayonini tashkil etish, Google Classroom, ta'lim platformasi, Internet-resurs, ta'lim sifati va samaradorligi.*

Газиев Куёш Азаматович
Наманганский государственный университет
Преподаватель кафедры цифровых образовательных технологий
E-mail: hilol200218@gmail.com

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОБЛАЧНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Talabalarning texnik kompetentsiyasini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi:

- Oliy ta’lim muassasalari muhandislik yo‘nalishlarida virtual laboratoriyalar va simulyatsion tizimlarni keng joriy etishi lozim. Virtual laboratoriyalar an’anaviy laboratoriyalarning yetishmasligini to‘ldiruvchi vosita bo‘lib, talabalarning o‘zlashtirish jarayonini boyitadi.
- Talabalar uchun sanoat korxonalari bilan yaqin hamkorlikda stajirovka va kooperativ ta’lim dasturlarini tashkil etish, ularning nazariy bilimlarini real sharoitda sinab ko‘rish va professional ko‘nikmalarini oshirish imkoniyatini ta’minlash tavsiya etiladi.
- O‘quv dasturlarini kompetentsiyaga asoslab qayta ko‘rib chiqish va baholash tizimini yangilash zarur. Kompetentsiya asosida tuzilgan ta’lim modeli talabalarga o‘z bilim va ko‘nikmalarini aniq yo‘nalishlarda baholash, o‘z-o‘zini rivojlantirishga erishish imkonini beradi.
- Ta’lim jarayonida raqamli vositalar va zamonaviy texnologiyalarni (masalan, onlayn platformalar, elektron laboratoriyalar) keng joriy etish hamda loyiha asosida o‘qitish metodlarini rivojlantirish talabalar uchun 21-asr ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.
- Darsliklar va o‘quv materiallarini zamonaviy talablarga moslashtirish, o‘qituvchilarning pedagogik malakasini doimiy oshirish va amaliy laboratoriyalarni yangi uskunalar bilan jihozlash muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, oliy ta’lim muassasalari va sanoat o‘rtasida uzviy aloqani rivojlantirib, ta’lim muhitini kompetentsiyalarga yo‘naltirilgan holda yangilash yuqori sifatli muhandis kadrlarini tayyorlashning asosiy garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Qo‘ziev N.M., Shabarova U.N. Kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida talabalarni texnik tafakkurini rivojlantirish. Oriental Renaissance, 2021, 11(2): 111–128.

2. Yo‘ldosheva M.B. Zamonaviy pedtexnologiyalar vositasida talaba yoshlarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish. Oriental Renaissance, 2023, 3(4/2): 55–62.

3. Raxmonov I.U. Virtual laboratoriyalar va o‘quv simulyatorlari: afzallik va kamchiliklar. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar, 2023, №4, 255–262.

[19] Raxmonov I.U. Virtual laboratoriyalar va o‘quv simulyatorlari: afzallik va kamchiliklar. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar, 2023, №4, 255–262.

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Savdo-sanoat palatasi bilan kelishgan holda qabul qilingan, 2025/2026 o‘quv yilidan dual ta’limni joriy etish chora-tadbirlari haqidagi 2025-yil 16-yanvardagi 14-son qaror. (Lex.uz)

5. Engineering Institute of Technology – Industry Partnership Program. https://www.eit.edu.au/industry/industry-partnership-program.

6. GCCSA-2021- 7th Global Congress on Contemporary Sciences & Advancements.

7. Boyanova G.I. (2022). Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim jarayonini modernizatsiyalash. Ta’lim va innovatsiyalar, №2. – B. 18–24.

8. Karimov A.N. (2022). Oliy ta’limda STEM-texnologiyalarni joriy etish masalalari. Pedagogika va psixologiya muammolari, №4. – B. 73–78.

9. IIUM Engineering Faculty Report (2022). Impact of Virtual Labs on Student Learning Outcomes in Engineering Courses.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-5]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Xaydarova Shaxlo Narzullayevna
Navoiy davlat universiteti, Maktabgacha ta'lim kafedrasi dotsenti, PhD
E-mail: xaydarovashaxlo@mail.ru

INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA PEDAGOGLARNING KASBIY TENDENSIYALARI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim tashkil etilgan guruhlarda ta'lim va tarbiya jarayonini samarali olib borish uchun pedagog strategik reja asosida bir necha tendensiyalarga tayangan holda tashkil etishi kerakligi bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *inklyuziv ta'lim, nogiron, imkoniyati cheklangan bola, qonuniy manfaatlar, tashxislash, insonparvarlik tamoyili, metodologiya, strategiyalar, tendensiyalar, muvaffaqiyatli ta'lim.*

Хайдарова Шахло Нарзуллаевна
Навоийский государственный университет,
доцент кафедры дошкольного образования, PhD
E-mail: xaydarovashaxlo@mail.ru

ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ПЕДАГОГОВ В СРЕДЕ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: *В статье описывается, как эффективно вести образовательный и воспитательный процесс в группах инклюзивного образования, который педагог должен организовать на основе стратегического плана, опираясь на несколько тенденций.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, инвалид, ребенок с ограниченными возможностями, законные интересы, диагностика, гуманистический принцип, методология, стратегии, тенденции, успешное образование.*

Haydarova Shakhlo Narzullayevna
Navoi State University, Associate Professor, Department of Preschool Education, PhD
E-mail: xaydarovashaxlo@mail.ru

PROFESSIONAL TRENDS OF TEACHERS IN THE ENVIRONMENT OF INCLUSIVE EDUCATION

Abstract: *This article describes how to effectively conduct the educational and upbringing process in inclusive education groups, which the teacher should organize based on a strategic plan, relying on several trends.*

Keywords: *inclusive education, disabled, child with disabilities, legitimate interests, diagnosis, humanistic principle, methodology, strategies, trends, successful education.*

Kirish.

Mamlakatimizda bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini ilk yoshidan boshlab tashxislash, sog'liklarini doimiy nazorat qilish va mustahkamlash, har bir bolaning sifatli bilim olishlarini ta'minlashga qaratilgan islohatlar inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun muhim qadam hisoblanadi. Imkoniyati cheklangan bolalarni umumiy ta'lim jarayoniga samarali jalb etish milliy pedagogikada bugun yechimini kutayotgan muhim masalalardan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonining 66-maqsadida nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayotini sifatli va darajasini oshirishga qaratilishi, nogironlik belgisi bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishda teng sharoitlarni yaratish, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta'minlovchi inklyuziv ta'lim tizimini takomillashtirish kabi vazifalar belgilanib, bu borada imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim-tarbiya berishga dunyoviy yondashuvlarni o'rganish, ular asosida inklyuziv jarayonini tashkil etish va takomillashtirish, o'quvchilarni o'z-o'zini baholash texnologiyalari, moslashuv va muloqotni to'g'ri tashkil etish nazarda tutiladi.

Bolalarni himoya qilish xalqaro tashkiloti o‘zining asosiy maqsadi etib bola huquqlarini asos qilib oladi. “Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya”da barcha bolalarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan ta’lim tizimini yaratish g‘oyasi ilgari surildi. Chunki har bir bolada, u sog‘lommi yoki imkoniyati cheklanganmi - ularda takrorlanmaydigan xarakter, qiziqish, imkoniyat va bilimga ehtiyoj mavjud bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Taniqli psixolog L.S.Vigotskiy ham muhit va shaxsning uyg‘unligi to‘g‘risida: “Ijtimoiy muhit sog‘ligi, imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun birinchi darajali ahamiyatga egadir, - deb ta’kidlagan. Daraxtning ingichkagina ildizlari o‘zini oziqlantiruvchi tuproqning qatlamlari va shakliga mos kelmaydi. Ular o‘z-o‘zicha tuproqning ozuqa beruvchi qatlamlariga yetib borolmay, quruq va zaharli qatlamga kirib qoladi. Bunday o‘simlik muvofiq sharoitlarda gullashi mumkin edi, biroq odatdagi sharoitda taraqqiyotning cho‘qqisiga yetmasdan, bujmayib so‘lib qoladi”, - deya imkoniyati cheklangan bolalarning rivojlanishini ildizi yomon tomir otgan o‘simlikka o‘xshatgan.

Tahlil va natijalar.

Olib borilgan izlanishlar asosida, yuqoridagi ta’riflarni takomillashtirgan holda “inklyuziv ta’lim” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin: Inklyuziv ta’lim - bu uzluksiz o‘qitish tizimida alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan bolalar va yoshlarga mehribonlik bilan, tizimli yondashadigan, individuallashgan, sharoitga qarab o‘zgaruvchan, maxsus o‘quv dasturlari, vositalari, metodlari yordamida ta’lim-tarbiyaning pedagogik-psixologik jihatlarini zmonaviy talablarga mos olib boriladigan jarayondir.

Inklyuziv o‘qitish bilan integrallashgan umumiy ta’lim muassasalarida alohida imkoniyati cheklangan bolalarning bilim olish bilan bog‘liq huquqlari davlat va jamiyat tomonidan himoyalanadi.

Inkluziv ta’lim bu, shunday ta’lim-tarbiya jarayoni-ki, unda jismoniy, ruhiy, aqliy va boshqa muammolaridan qat’iy nazar barcha bolalar umumiy tarzda o‘z hududida, ehtiyojlariga mos barcha sharoitlar yaratilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari, umumiy o‘rta maktablarda o‘z tengqurlari bilan birga ta’lim olishi demakdir.

Inklyuziv ta’lim ijtimoiy modelga asoslanadi va u muammoni bolada emas, balki dastur va metodologiyada deb hisoblaydi. Bunday ta’lim tizimiga ba’zi bir o‘zgartirishlar kiritishni taqozo etadi. Bunda har bir bolaning ehtiyojini hisobga olgan holda o‘quv dasturlari tayyorlanadi, uslubiyotning psixologik muammolari bilan bog‘liq tomonlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yiladi. Inklyuziv ta’lim hamma bolalarni, shu jumladan, imkoniyati cheklangan bolalarni ham o‘zlari xohlagan ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya olishlari mumkin, deb xulosa chiqaradi.

Inklyuziv ta’lim rasmiy ta’lim tushunchasidan ancha kengroq. Bu ta’limda ko‘proq o‘qishda, o‘rganishda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlanadi.

Inklyuziv ta’lim sharoitidagi ta’lim muassasalarida faoliyat yuritadigan pedagoglar qanday sifatlarga ega bo‘lish kerak? Inklyuziv ta’limda insonparvarlik tamoyili va o‘qituvchining kasbiy mahorati bosh omil hisoblanadi. Avvalo, pedagog inklyuziv tafakkurga ega bo‘lishi va ta’lim sifati ma’suliyatini o‘z zimmasiga olishi shart. Inklyuziv ta’lim sinflarida ishlaydigan o‘qituvchilar ishi sifatining asosiy mezonlari – o‘qituvchi bolalarning turli toifada ekanligiga qaramay barcha bolalarning huquqini himoyalashi va hurmat qilishi lozim.

Inklyuziv ta’limni tashkil etishda imkoniyati cheklangan bolalarning iqtidorini aniqlash va uni rivojlantirishga urg‘u berish, zarur shart-sharoitlarni yaratish, mazkur ta’lim ishtirokchilarining bevosita burchidir. Bunday ta’limni maxsus ta’lim tizimida ham kuzatish mumkin.

Inklyuziv ta’lim imkoniyati cheklangan bolalarning yashash joylariga yaqin bo‘lgan umumta’lim maktablarining oddiy sinflarida amalga oshiriladi. Bu o‘qitish jarayonida imkoniyati cheklangan, alohida ta’lim olishga ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun zaruriy muhitni yaratish, ta’lim olishda qo‘shimcha yordam va xizmatlarni tashkil etish, ularning ijtimoiy, jismoniy hamda ichki ehtiyojlari talablariga javob beradigan tarzda tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Inklyuziv ta’lim maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan, o‘z sohasini yaxshi biladigan va kasbini yaxshi ko‘radigan, o‘zini hurmat qiladigan, ma’naviyati sog‘lom, malakali o‘qituvchilarni talab qiladi. Uzluksiz ta’lim tizimida inklyuziv o‘qitishni yo‘lga qo‘yishda turli ehtiyojlarga muhtoj bo‘lgan bolalarning xususiyatlarini o‘z ichiga qamrab olgan dasturlar tuzish maqsadga muvofiqdir.

Muhokama.

Inklyuziv ta’lim o‘zlashtirishda qiyinchilik bo‘lgan bolalar bilan ishlash bo‘yicha mutaxassis bo‘lish bilan birga umumiy ish yuritishga qodir, bu sohada amaliy tajribaga ega bo‘lgan pedagoglarga muhtoj.

Inklyuziv ta’lim tashkil etilgan guruhlarda ta’lim-tarbiya jarayonini samarali olib borish uchun pedagog bir qator muhim strategiyalarga tayanishi zarur. Bu strategiyalar inklyuziv ta’lim tizimi xususiyatlarini ifodalashi lozim. Inklyuziv ta’lim tashkil etilgan muassasalarda o‘qitish strategik reja asosida olib boriladi va ularda ta’lim-tarbiya beradigan pedagoglar quyidagi tendensiyalarga tayanishi maqsadga muvofiqdir:

Mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish. Kichik maktab o‘quvchilar sinflaridagi inklyuziv ta’limda alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan bolalar qiziqishlarini uyg‘otadigan metodlardan foydalaniladi. Bunda bolalardan barmoqlari va qo‘llaridan foydalaishni talab

qiluvchi ko‘p maqsadli o‘yin-metodlar taklif etiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar bilimlarni o‘zlarida mavjud bo‘lgan beshta sezgi organi (ko‘rish, eshitish, ta’m bilish, hid bilish va ushlab ko‘rish)dan qaysi biri tugal bo‘lsa, shundan maksimal darajada foydalanib o‘rganishadi. Shu sababli alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan, shu sezgi organlarining qaysi birining kemtikligiga qarab ta’limning bolalar ko‘ra oladigan, eshita oladigan, ta’m bila oladigan, hidni sezadigan va ushlab ko‘ra oladigan metodlaridan foydalanilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mustaqil fikr talab qiladigan ish turlaridan foydalanish. Inklyuziv ta’limda kichik maktab o‘quvchilarning dars mashgulotlarida ham, maktabgacha ta’lim tashkilotlari mashgulotlarida ham imkoniyati cheklangan bolalarni mustaqil mulohaza yuritishga o‘rgatish, munosabat bildirish, xulosa chiqarish, qarashlarini asoslash hamda fikrini himoya qilishga o‘rgatish uchun pedagogning kasbiy kompetentligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil ko‘nikmasini shakllantiruvchi topshiriqlardan foydalanish.

Topshiriqlarning ba’zilari, odatda, bir qator kichik topshiriqlardan iborat bo‘lishi mumkin. Imkoniyati cheklangan bolalar topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarishlari uchun uning mazmun-mohiyatini o‘rganishga yo‘naltirilishi lozim. Buning uchun topshiriqni bir necha kichik bo‘laklarga taqsimlashi, har birining zamiridagi haqiqatlarga bolalar e’tiborini qaratilishi, ulardagi muhim topshiriqlarni nomuhimlardan farqlashga diqqat qaratilishi maqsadga muvofiq.

Mashq va topshiriqlarning xilma-xilligi hamda ketma-ketligi.

Dastlab oson, fikriy zo‘riqishni talab qilmaydigan mashq va topshiriqlardan foydalaniladi. Imkoniyati cheklangan bolalar bu vazifalarni o‘zlashtirib borganlari sari mashq va topshiriqlar murakkablashtirib, mustaqil tafakkur va munosabat talab qiladigan darajada chuqurlashtirib boriladi.

Beriladigan vazifalarni o‘zgaruvchanligi. Jiddiy, mustaqil munosabat talab qilinadigan mashq va topshiriqlar sharoitga qarab soddalashtiriladi yoki murakkablashtiriladi. Tashkil etiladigan erkin o‘yinlar va loyihalar bu turdagi bolalarning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda almashtirib turiladi.

Yakkalanib qolmaslikka yo‘l qo‘ymaslik. Imkoniyati cheklangan bolalarni individual ravishda o‘qitishda uni sog‘lom bolalar orasida yakkalanib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Bunda har bir mashq, topshiriq va vazifalarga barcha bolalar qatnasha oladigan holda o‘rganish jarayoniga tavsiya etilishi lozim. Beriladigan topshiriqlarni har qanday bola ham a’lo darajada bajara va o‘zlashtira olmaydi. Barcha bolalar teng huquqli ekanligi va hamma bir-biriga yordam berishi va imkoniyat yaratishi kerakligi ularga uqtiriladi.

Vazifa, topshiriq va mashqlarni vaziyatga moslashtirish.

Inklyuziv ta’limda o‘quvchilarga beriladigan topshiriqlar ularning qabul qilishi va imkoiyatlarga qarab soddalashtirib yoki murakkablashtirib turiladi. Bu jarayonda pedagog berayotgan ko‘rsatmalari xato emasligiga amin bo‘lishi va tushuntirayotganida ham nutqiga e’tibor berishi kerakligi, sekin, tushunarli, soda va aniq gapirishi talab qilinadi. Biror vazifaning qanday bajarilishi borasida aniq yo‘nalish berishi, zarurat bo‘lganda ko‘rsatib berishi taqozo etiladi. Topshiriqlardagi har bir vazifani bolalar o ‘zlari mustaqil bajara olishlari maqsadga muvofiqdir.

Vazifa va topshiriqlarni qisqa, soda, tushunarli shakllantirilishiga erishish. Inklyuziv ta’limga jalb qilingan imkoniyati cheklangan bolalar bir oz asabiy bo‘lishi, besabrliligini inobatga olib, ularga qo‘yiladigan talablar aniq, ixcham tarzda ifodalanishi, har bir narsada bolalar diqqatini jalb qilish, ularning ishonchi va intilishini saqlab qolish uchun har bir jihatlariga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir. Bir marta muvaffaqiyatsizlikka uchragan bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini qayta orttirish juda qiyin kechishini bilish inklyuziv ta’limda faoliyat olib boradigan o‘qituvchidan juda katta kuch va bilim, mahorat talab etadi.

Maqtov va rag‘batlantirishlarga saxiy bo‘lish. Inklyuziv ta’limga jalb qilingan imkoniyati cheklangan bolalarga muvaffaqiyatlarga erishishlari uchun ko‘p imkoniyatlar berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Haqiqiy harakat va muvaffaqiyatlarni rag‘batlantirish, hatto kichkina bo‘lsa-da, bolalar erishgan har bir yutuqni taqdirlash orqali imkoniyati cheklangan bolalarda o‘ziga bo‘lgan ishonch hissini shakllantirish inklyuziv ta’lim samaradorligining garovidir. Hattoki muvaffaqiyatsizlikka uchragan bolaga ham ijobiy munosabatda bo‘lib:-“Juda yaxshi bajarishga harakat qilding, harakat qilishda davom et, men senga ishonaman, sen albatta uddalaysan.” kabi iboralar ishlatiladi. Biror narsani bolaga qayta-qayta tushuntirishda pedagogdan kuchli sabr talab etiladi.

Inklyuziv ta’limda pedagoglar o‘ziga xos mas’uliyatga ega bo‘lishi kerakki, bunda ular turli xil bolalar o‘rtasidagi tenglikni ta’minlashi, bag‘rikenglikni yo‘lga qo‘yishi, muruvvat qo‘llarini cho‘zishi, qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratib berishlari va o‘z nazoratlariga olishlari muhimdir. Bunday qo‘llab-quvvatlash bolalarning butun hayotlari davomida zarur hisoblanadi. Shuning uchun ham ta’lim muassasalarining dastlabki bo‘g‘inlaridan boshlab, bunday bolalarning ijtimoiy rivojlanishlari uchun qulay shart-sharoit yaratish talab etiladi. Barcha bolalar teng bo‘lishi va ularning muhitga moslashishlari uchun qulay sharoit yaratiladi. Bu vaziyatda pedagoglar bunday bolalarning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ta’limni ularga moslashtirishi kerak.

Pedagog barcha bolalarning muvaffaqiyatli ta’lim olishlari uchun sinf muhitini sog‘lomlashtirish, erkinlikni ta’minlash, faollikni kuchaytirish, insonparvarlik g‘oyalarini ustivor hisoblab o‘z faoliyatini tashkil etishi lozim. Ta’lim jarayonida imkoniyati cheklangan bolalarning har tomonlama xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘z tengdoshlari bilan birgalikda hayotiy ko‘nikmalarni egallashlari uchun sharoit yaratadi.

Xulosa.

Yuqorida keltirib o‘tilgan fikrlar asosida imkoniyati cheklangan bolalarni ta’lim muassasalarida teng huquqlilik asosida o‘qitish va tarbiyalash bugungi kunning muhim masalaridan biri hisoblanadi. Barcha bolalarning muvaffaqiyatli ta’lim olishlarida pedagoglarning mehnatlari beqiyoski, bunda ota-onalar va maktab, mahalla jamoatchiligining pedagogik savodxonligini oshirish hozirgi kun uchun dolzarbdir. Bunday vaziyatda biz pedagoglar o‘z mas’uliyatimizning yanada zalvorli ekanini chin yurakdan his qilishimiz va munosib yondashishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh.M. “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. 2022 yil 28 yanvar.

2. Mirziyoyev Sh.M. “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4860-sonli farmoni. 2020-yil 13-oktabr.

3. Выготский Л.С. Воображение и его развитиев детском возрасте. Хрестоматия по психологии.-М: Просвещение, 1987.

4. Devid Bayn. Rivojlanayotgan mamlakatlarda nogiron bolalar: baholash, dastur va ko‘rsatmalar.-Kanada: Al’bert universiteti, 1991.-29-b.

5. Madatov I.Yu. “Inklyuziv ta’lim” Darslik, “Best-Publist” nashriyoti, Toshkent-2024.

6. Ibraimov Xolboy Ibragimovich, Khaydarova Shakhlo Narzullaevna, “Organizational pedagogical principles of education of pre-school children in the inclusive education system”. Science and innovation international scientific journal https://doi.org/10.5281/zenodo.10143278.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-5]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Yuldasheva Kamola Baxtiyarovna
Bilim va malakalarni baholash agentligi huzuridagi
ilmiy o‘quv amaliy markaz Bosh mutaxassisi

TALABALARNING TEXNIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada texnika yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida texnik kompetentligini shakllantirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar kompleks tarzda tahlil qilingan. Analitik, nazariy, amaliy va taqqosloviy yondashuvlar asosida simulyatsiya texnologiyalari, virtual laboratoriyalar, dual ta’lim tizimi hamda boshqa innovatsion pedagogik usullar yordamida talabalarning nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini integratsiyalash masalalari yoritiladi.*

O‘zbekiston va xorijiy tajribalar misolida texnik ta’limda kompetensiyaviy yondashuvning afzalliklari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari haqida ilmiy mulohazalar bildiriladi. Maqola yakunida texnik yo‘nalishdagi ta’lim sifatini oshirish uchun ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *texnik kompetensiya, innovatsion pedagogik texnologiyalar, simulyatsiya, virtual laboratoriya, dual ta’lim, texnik ta’limda integratsiya.*

Юлдашева Камола Бахтияровна
Главный специалист Научно-учебно-практического
центра при Агентстве по оценке знаний и квалификаций

СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ТЕХНИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация: *В данной статье комплексно проанализированы современные подходы, направленные на формирование технической компетентности студентов технических направлений в процессе подготовки к профессиональной деятельности. На основе аналитических, теоретических, практических и сравнительных подходов рассматриваются вопросы интеграции теоретических знаний и практических навыков студентов посредством технологий симуляции, виртуальных лабораторий, системы дуального образования и других инновационных педагогических методов.*

На примере опыта Узбекистана и зарубежных стран приводятся научные размышления о преимуществах компетентностного подхода в техническом образовании, а также об имеющихся проблемах и путях их преодоления. В заключении статьи представлены научно обоснованные выводы и рекомендации по повышению качества образования в технических направлениях.

Ключевые слова: *техническая компетентность, инновационные педагогические технологии, симуляция, виртуальная лаборатория, дуальное образование, интеграция в техническом образовании.*

Yuldasheva Kamola Bakhtiyarovna
Chief Specialist of the Scientific-Educational and Practical
Center under the Agency for Assessment of
Knowledge and Qualifications

STRATEGIES FOR DEVELOPING STUDENTS' TECHNICAL COMPETENCE

Abstract: *This article provides a comprehensive analysis of modern approaches aimed at developing technical competence in students pursuing education in technical fields, particularly in the context of preparing them for professional activity. Based on analytical, theoretical, practical, and comparative approaches, the article explores the integration of students’ theoretical knowledge and practical skills through simulation technologies, virtual laboratories, dual education systems, and other innovative pedagogical methods.*

Using examples from both Uzbekistan and international experience, the article presents scholarly reflections on the advantages of the competency-based approach in technical education, the existing challenges, and ways to overcome them. In the conclusion, scientifically grounded findings and recommendations are provided to improve the quality of education in technical disciplines.

Keywords: *technical competence, innovative pedagogical technologies, simulation, virtual laboratory, dual education, integration in technical education.*

Kirish.

Globallashuv va raqamli transformatsiya davrida texnika sohasida ta'lim olayotgan kadrlar zamonaviy sanoat ehtiyojlariga mos ravishda keng qamrovli bilim, ko'nikma va kompetensiyalarga ega bo'lishi talab etilmoqda. Rivojlanayotgan texnologiyalar – avtomatika, sun'iy intellekt, raqamli boshqaruv tizimlari va boshqalar – muhandislik faoliyatiga innovatsion yondashuv zarurligini ko'rsatmoqda. Endilikda muhandis mutaxassis faqat nazariy bilim bilan cheklanib qolmasdan, balki ularni amaliyotda qo'llay oladigan, muammoni hal etishga qodir, moslashuvchan fikrlovchi kompetent kadr bo'lishi lozim. Shunday mutaxassisni tayyorlashda oliy ta'lim jarayonini tubdan yangilash, nazariy va amaliy komponentlarni samarali integratsiya qilish zarur.

O'zbekistonda so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ta'lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan dual ta'lim tizimini sinovdan o'tkazish, stajirovka (internatura) markazlarini tashkil etish, virtual laboratoriyalar yaratish kabi tashabbus va dasturlar yo'lga qo'yildi. Mazkur chora-tadbirlar talabalarning texnik tafakkuri va kasbiy kompetentligini amaliy muhitda shakllantirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Shu bilan birga, ta'lim sifati bo'yicha xorijiy tajriba ham chuqur o'rganilib, hamkorlik loyihalari tashkil etilmoqda – masalan, MIT J-WEL dasturi bilan hamkorlikda O'zbekistonda yangi innovatsion universitetlar faoliyat boshlamoqda[20]. Biroq, texnik yo'nalishdagi ta'limda hal etilishi lozim bo'lgan muammolar ham mavjud: ko'plab OTMlarda moddiy-texnika bazasi eskirgan, laboratoriya jihozlari yetarli emas, professor-o'qituvchilarning zamonaviy texnologiyalar bo'yicha malakasi pastligi seziladi. Jumladan, tadqiqotlar natijasida O'zbekistonda muhandislik ta'limi sohasida sanoat bilan aloqalarning sustligi, laboratoriya infratuzilmasining eskirganligi va zamonaviy texnologiyalarga ega malakali o'qituvchilar yetishmasligi asosiy muammolar ekani aniqlangan[21]. Ushbu maqolada texnik mutaxassislar tayyorlashda nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan mustahkamlashga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuvlar ko'rib chiqilib, mahalliy va xorijiy tajribalar asosida ushbu muammolarga yechim sifatida ilmiy takliflar bildiriladi.

Texnik kompetensiya nima?

Texnik kompetensiya – bu muhandislik sohasiga oid nazariy bilimlar, texnologik ko'nikmalar va amaliy tajribaning uyg'unlashuvi bo'lib, mutaxassisning real muammolarni hal etish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Kompetensiyaviy yondashuv nazariyasiga ko'ra, kompetentlik shaxsning egallagan bilim va malakalarini haqiqiy hayotiy vazifalarga tatbiq etish qobiliyatini anglatadi. Texnik yo'nalishlarda bu tushuncha talabalar uchun nafaqat o'quv fanlarini o'zlashtirish, balki ularni kasbiy faoliyat jarayonida qo'llashga tayyorlash darajasini ifodalaydi. Masalan, bo'lajak muhandis uchun matematik analiz, fizika, informatika kabi fundamental bilimlarni amaliy muammo yechimi uchun qo'llay olish muhim hisoblanadi. Shuningdek, u zamonaviy asbob-uskunalar va dasturiy vositalardan foydalanish, loyihalash va tahlil qilish ko'nikmalarini ham puxta egallashi lozim. Mahalliy va xorijiy tajribalarda texnik kompetentlikni shakllantirish uchun o'quv rejalarga ko'p fanli (multidisiplinar) kurslar kiritish, muhandislik loyihalari asosidagi topshiriqlar berish va interfaol mashg'ulotlarni qo'llash kabi uslublar samarador ekani ta'kidlangan. Shu nuqtai nazardan, pedagogik tadqiqotlarda kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish masalasi keng o'rganilmoqda. Texnik kompetensiya talabada shakllanganda, u nafaqat nazariy bilimdon, balki o'z kasbini puxta egallagan, zamon talablariga mos innovatsiyalarni tez o'zlashtiradigan mutaxassis sifatida maydonga chiqadi.

Bugungi kunda texnik kompetentlikning ahamiyati yanada ortgan. Chunki sanoatda Industry 4.0 konsepsiyasi, ya'ni raqamli transformatsiya sharoitida muhandislardan tizimli fikrlash, moslashuvchan innovatsion yondashuv va umrboqiy o'qib-o'rganish qobiliyati talab etiladi. Texnik OTM bitiruvchilarining bunday qobiliyatlar bilan mehnat bozoriga kirib borishi ularning raqobatbardoshligini oshiradi va mamlakatning ilmiy-texnik salohiyatini yuksaltiradi. Shu bois, texnik ta'limda nazariy bilim berish bilan bir qatorda, talabalarni amaliy muhitda real masalalarni hal etishga tayyorlash – zamon talabi bo'lib qolmoqda. Quyida talabalarning texnik kompetentligini rivojlantirishda muhim o'rin tutuvchi zamonaviy pedagogik yondashuvlar ko'rib chiqiladi.

Simulyatsiya va virtual laboratoriyalarning o'rni

Texnik ta'limda kompyuter simulyatsiyalari va virtual laboratoriyalar jadal suratlar bilan kengayib bormoqda. Virtual laboratoriya – bu maxsus dasturiy muhit bo'lib, unda talabalar jismoniy jihozlarsiz, kompyuter orqali turli eksperimentlarni o'tkazish va jarayonlarni modellashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bugungi kunda dunyoning yetakchi texnika universitetlari virtual lab texnologiyalaridan keng foydalanmoqda. Masalan, MIT va Stenford universitetlarida turli muhandislik yo'nalishlarida virtual laboratoriyalar orqali talabalarga tajriba o'tkazish sharoiti yaratilgan.

[20] MIT Jameel World Education Lab helps shape Uzbekistan's first autonomous university | Open Learning

[21] Khusainov R.R. (2025) Development Of Engineering Education System In Uzbekistan In The Era Of Digital Technologies

Aerodinamika kursida talabalar samolyot modellarini virtual shamol tunnellarida sinab ko‘rishadi – bu usul real prototip yasamasdan turib, parvoz parametrlarini tekshirish imkonini beradi. Xuddi shuningdek, Germaniyaning Myunxen Texnika Universitetida (TUM) muhandislik talabalari uchun AutoCAD, MATLAB, ANSYS kabi dasturiy vositalar muntazam o‘quv jarayonida qo‘llanadi. Bu vositalar yordamida talabalar texnik jarayonlarni modellashtirish, mavjud muammoni tahlil qilish va yechim loyihalash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni sanoat standartlariga yaqin sharoitlarda rivojlantirishga erishmoqda[22]. Demak, simulyatsiya vositalari ta’limning bir qismi bo‘lib, talabalarni real muhitga yaqinlashtirishga xizmat qilmoqda.

Virtual laboratoriyalarning qator afzalliklari mavjudligi ilmiy ishlarda qayd etilgan. Jumladan, virtual laboratoriyalar joriy etilishi bilan:

- **Yuqori xarajatlarning qisqarishi:** Endi an’anaviy laboratoriya uchun qimmat uskunalar yoki reagentlarni xarid qilish talab etilmaydi. Ko‘p hollarda moliyaviy cheklovlar tufayli universitet laboratoriyalarida eskirgan asbob-uskunalar ishlatiladi va bu talabalarning tajriba o‘tkazish samaradorligini pasaytiradi. Virtual muhitda esa murakkab va qimmat jihozlarning o‘rnini kompyuter modeli bosadi.
- **Xavfsizlik va imkonsiz tajribalarni amalga oshirish:** Virtual laboratoriya orqali real sharoitda xavfli bo‘lgan yoki umuman bajarib bo‘lmaydigan eksperimentlarni amalga oshirish mumkin. Masalan, kimyoviy portlovchi reaksiyalarni yoki inson ko‘zi ilg‘ay olmaydigan mikrojarayonlarni kompyuter ekranida kuzatish imkoni yaratiladi. Bu talabalarni real jarayonlarning nozik jihatlarini tushunishiga yordam beradi.
- **Masofaviy ta’limdagi qulaylik:** Eng muhim afzalliklaridan biri – talabalar masofaviy (onlayn) o‘qish davomida ham laboratoriya mashg‘ulotlaridan cheklanib qolmaydi. Masofadan turib virtual lab yordamida amaliy topshiriqlarni bajarish mumkin. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davrida jahon bo‘ylab universitetlar laboratoriya mashg‘ulotlarini virtual muhitga o‘tkazgan holda ta’lim jarayonini uzluksiz davom ettirishga erishdilar[23].

Virtual laboratoriyalar samaradorligi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar ularning haqiqiy natija berishini tasdiqlaydi. Xususan, 2024-yilda chop etilgan meta-tahlilda virtual laboratoriyalardan foydalanish talabalar natijalarini sezilarli darajada yaxshilashi aniqlangan.

Ushbu tadqiqot 46 ta ilmiy ish ma’lumotlarini umumlashtirib, virtual laboratoriyalardan foydalanish talabalar natijalariga o‘rtacha 0.68 miqdorida ijobiy ta’sir ko‘rsatganini ko‘rsatdi (Hedges’ g = 0.686). Ayniqsa, virtual lablar o‘qishga motivatsiya va o‘quv jarayoniga jalb etilganlik ko‘rsatkichlarini keskin oshirgan – bu indikatorlar bo‘yicha effekt hajmi mos ravishda 3.57 va 2.89 ga teng bo‘lgan. Bu shuni anglatadiki, virtual laboratoriyalar talabalarning darsga qiziqishini oshirish va bilim olishga intilishini kuchaytiruvchi muhim omil bo‘lmoqda. Shu bilan birga, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, virtual laboratoriyalar hali an’anaviy (real) laboratoriya ishlarini to‘liq almashtira olmaydi – ya’ni talabalarga jismoniy jihozlar bilan ishlash tajribasini bera olmasligi mumkin. Biroq, ular an’anaviy laboratoriya imkoniyatlarini samarali to‘ldiruvchi vosita sifatida o‘zini namoyon qilmoqda. Shuning uchun zamonaviy yondashuv sifatida virtual va haqiqiy laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘zaro uyg‘unlashtirib olib borish, birini ikkinchisi bilan integratsiya qilish muhimdir.

Albatta, virtual laboratoriyalardan foydalanishda ayrim cheklovlar ham e’tiborga olinishi kerak. Masofaviy tajribalar davomida talaba real qurilma bilan bevosita ishlash ko‘nikmasini to‘liq hosil qila olmasligi mumkin, bu esa kelgusida ishlab chiqarish sharoitida paydo bo‘ladigan kutilmagan muammolarni hal etishda qiyinchilik tug‘dirishi ehtimoli bor. Shuningdek, virtual muhitda barcha fizik jarayonlarning modeli oddiylashtirilgan bo‘lib, ba’zi nozik tafsilotlar hisobga olinmasligi mumkin. Shu sababli ko‘plab mutaxassislar virtual va haqiqiy laboratoriyalarni qarama-qarshi qo‘yish emas, balki ularni birgalikda qo‘llash strategiyasi tarafdori ekanini ta’kidlashmoqda[24]. Bunda nazariy darslar va fizik laboratoriya ishlariga qo‘shimcha ravishda virtual simulyatsion mashg‘ulotlar tashkil etiladi.

Ayni paytda O‘zbekistonda ham qator oliy o‘quv yurtlarida virtual laboratoriyalar joriy qilina boshlangan. Masalan, Toshkent axborot texnologiyalari universitetida ayrim fanlardan virtual laboratoriya mashg‘ulotlari yo‘lga qo‘yilganligi ma’lum.

2017–2022-yillarda Jahon banki ko‘magida amalga oshirilgan loyiha doirasida respublikadagi 40 ta universitet zamonaviy o‘quv-laboratoriya jihozlari bilan ta’minlandi, yana 86 ta OTMga axborot-kommunikatsiya uskunalari yetkazib berildi[25]. Bu O‘zbekiston oliy ta’limida virtual va interfaol laboratoriyalar uchun moddiy baza yaratishga qaratilgan muhim qadam bo‘ldi. Xulosa qiladigan bo‘lsak, virtual laboratoriyalar texnik ta’lim sifatini oshirishda ulkan salohiyatga ega innovatsion texnologiya bo‘lib, uni

[22] Khusainov R.R. (2025) Development Of Engineering Education System In Uzbekistan In The Era Of Digital Technologies

[23] Raxmonov I.U., Niyozov N.N., Nematov L.A. (2023). Virtual laboratoriyalar va o‘quv simulyatorlari: afzallik va kamchiliklar. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar, 2023, №4, 254–259.

[24] Li J., Liang W. (2024). Effectiveness of virtual laboratory in engineering education: A meta-analysis. PLoS ONE, 19(12): e0316269.

[25] “Two new projects will be launched in the field of higher and vocational education with the World Bank” – Gov.uz rasmiy xabari (2024-yil 14-fevral).

an’anaviy ta’lim shakllari bilan uyg‘un qo‘llash muhandis kadrlar tayyorlashning yangi bosqichiga yo‘l ochadi.

Dual ta’lim tizimi va sanoat bilan integratsiya

Muhandislik kadrlarini tayyorlashda dual ta’lim tizimi alohida o‘rin tutadi. Dual ta’lim – bu kadrlar malakasini oshirishda ta’lim muassasasi va ishlab chiqarish korxonasi hamkorligiga asoslangan o‘qitish shaklidir. Ushbu modelda talaba nazariy bilimlarning muayyan qismini oliy ta’lim muassasasida oladi, qolgan vaqt davomida esa korxona va tashkilotlarda amaliy tajriba orttiradi. Natijada, bitiruvchi nafaqat diplom, balki real ish tajribasiga ega bo‘lib chiqadi.

Tadqiqotchilar fikricha, dual ta’lim – nazariya va amaliyotning uzviy birligini ta’minlovchi samarali model bo‘lib, u malaka oshirish jarayonida yosh mutaxassislarning ishga joylashish imkoniyatini ham oshiradi[26].

Dunyo miqyosida dual ta’limning eng muvaffaqiyatli namunasi sifatida Germaniya tajribasi ko‘p tilga olinadi. Germaniyada kasb-hunar va texnik kadrlar tayyorlash tizimi an’anaviy ravishda dual tamoyilga asoslangan bo‘lib, bunda talaba o‘qish davrining yarmiga yaqinini korxonada ishlab o‘tkazadi, yarmida esa o‘quv dargohida nazariy ta’lim oladi. Mamlakatning sanoat va hunarmandchilik palatalari tomonidan boshqariluvchi ushbu tizim orqali nemis kompaniyalarining 20% dan ortig‘i o‘zida shogirdlarni ishlab, keyinchalik ularni doimiy ishga qabul qiladi. Dual tizim evaziga Germaniyada yoshlar ishsizligi Yevropada eng past ko‘rsatkichga tushgan – har yili 1.3 milliondan ziyod yoshlar dual o‘qishga jalb etilib, ularning 70% dan ortig‘i ishlab chiqqan korxonasida ishlashda davom etadi[27]. Bu natijalar dual ta’limning nafaqat ta’lim sifati, balki iqtisodiy samaradorlik borasida ham yuqori ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, Shveytsariya, Avstriya kabi davlatlarda ham dual o‘qitish ilgari surilib, o‘z samarasini bergan. Xususan, ishlab chiqarish korxonalari bilan uzviy bog‘liq holda o‘qigan bitiruvchilar mehnat bozoriga tez moslashib, unumli mehnat faoliyatini boshlaydi.

O‘zbekistonda dual ta’lim konsepsiyasi so‘nggi yillarda bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. 2020-yilda qabul qilingan yangi Ta’lim to‘g‘risidagi Qonunda dual ta’lim tushunchasi tilga olindi. Kasbiy ta’lim tizimida ayrim kollej va texnikumlarda dual elementlari sinovdan o‘tkazildi. Oliy ta’limda esa 2025-yildan rasman dual ta’limni bosqichma-bosqich joriy etish rejalashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qaroriga muvofiq, 2025/2026 o‘quv yilidan boshlab “Kasb egasi” nomli dual ta’lim tizimi birinchi bosqichda Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti 3 va 4-kurs talabalari uchun amaliyot tariqasida joriy etiladigan bo‘ldi[28]. Bu dastur doirasida tanlab olingan talabalar o‘qish bilan bir qatorda tegishli ishlab chiqarish korxonalarida ishlaydi, ularning korxonadagi mehnatiga ma’lum miqdorda haq to‘lanadi va bu ish haqining bir qismi davlat tomonidan kompensatsiya qilinadi. Kelgusida ushbu modelni boshqa texnik oliy o‘quv yurtlarida ham keng tatbiq etish ko‘zda tutilgan.

Dual tizimning joriy etilishi oliy ta’lim va sanoat o‘rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishi kutilmoqda. Talabalar dars davomida olgan nazariy bilimlarini darhol zavod va fabrikalarda real loyihalar ustida sinab ko‘radi, nazariyada bilmagan jihatlarini amaliyotda o‘rganadi. Bundan ta’lim muassasasi ham, ish beruvchi korxona ham manfaatdor: universitetlar bitiruvchilarining bandligi oshadi, korxonalar esa yosh mutaxassislarni shakllanish jarayonidayoq o‘ziga moslab tayyorlab oladi. Masalan, xorijiy tajribada Avstraliyadagi Engineering Institute of Technology (EIT) muassasasi Student Engineer Employment (SEE) dasturini joriy etgan bo‘lib, u mahalliy kompaniyalarni iqtidorli talabalarga moslashuvchan “ish/ta’lim” rejimida ish taklif etishga undaydi. Talabalar o‘qishni davom ettirgan holda muayyan stavkada korxonalarda ishlashadi, kompaniya esa ularni erta bosqichdayoq tanlab, malakasini oshirish imkoniga ega bo‘ladi[29]. Bunday yondashuv O‘zbekistonda ham keng joriy qilinsa, ikki tomonlama foyda ta’minlanadi: ta’lim sifati ko‘tariladi va bitiruvchilarning bandligi kafolatlanadi.

Dual ta’limni samarali joriy etish uchun bir qator shartlarga rioya qilish zarur. Birinchidan, o‘quv rejalari va amaliyot dasturlari korxona ehtiyojlari bilan muvofiqlashtirilgan bo‘lishi kerak. Ikkinchidan, korxonalarda tajribali mutaxassislar orasidan talabalar uchun malakaviy murabbiylar (ustozlar) biriktirilishi lozim. Uchinchidan, universitet va korxona o‘rtasida ikki tomonlama mas’uliyatli kelishuv tuziladi: universitet talabaning nazariy tayyorgarligiga, korxona esa amaliy ko‘nikma hosil qilishiga mas’ul bo‘ladi.

O‘zbekiston misolida, dual ta’limni yo‘lga qo‘yishning ilk bosqichida bunday hamkorlik mexanizmlari huquqiy jihatdan tasdiqlandi – korxona, talaba va universitet o‘rtasida uch tomonlama shartnomalar tuzish amaliyoti joriy qilinmoqda. Bu esa mazkur tizimning barqaror ishlashi uchun zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, dual ta’lim texnik mutaxassislarni real sektor talablariga muvofiq tayyorlashning innovatsion usuli bo‘lib, nazariya va

[26] Siddikova S.G. (2025). Proposals for implementing dual education in the higher education system. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(3): 205–209.

[27] Germany Trade & Invest (2025). Germany’s Unique Dual Education System. (Available online: gtai.de).

[28] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (2025). 2025/2026 o‘quv yilidan oliy ta’lim tizimida dual ta’limni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 14-son qaror, 2025-yil 16-yanvar.

[29] Engineering Institute of Technology (2023). Industry Partnership Program (Student Engineer Employment – SEE Program). (Available online: eit.edu.au).

amaliyot integratsiyasini ta’minlaydi. O‘zbekistonda bu tizimni keng tatbiq etish kelgusida muhandislik kadrlarining sifatini oshirish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish hamda yoshlarning bandlik masalasini hal etishga xizmat qiladi.

Loyiha asosidagi va interfaol ta’lim usullari

Texnik ta’lim jarayonini yanada samarali qilish uchun faqat texnologik vositalarnigina emas, balki pedagogik metodikalarni ham innovatsionlashtirish talab etiladi. So‘nggi yillarda loyiha asosida o‘qitish, muammo asosida o‘qitish (problem-based learning), case-study (vaziyat tahlili) kabi interfaol va amaliy usullar dunyo bo‘ylab muhandislik ta’limida keng ommalashmoqda. Bu usullarning mohiyati – talabalarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirish, ularga jamoaviy va mustaqil ravishda real muammoni hal qilish tajribasini berishdir.

Loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning, PBL) texnik mutaxassislar uchun ayniqsa foydalidir. Masalan, talabalar akademik kurs davomida kichik guruhlarda haqiqiy muhandislik loyihasini bajarishadi: robot prototipini yaratish, mobil ilova ishlab chiqish, kichik qurilish inshooti loyihasini tuzish va hokazo. Bunday loyiha jarayonida talabalarning bir qator kompetensiyalari shakllanadi: texnik bilimlarni qo‘llash, jamoada muloqot qilish, vaqtni boshqarish, muammoni bosqichma-bosqich tahlil qilish va hal qilish. Loyiha ishlari talabalarning ijodkorligini rag‘batlantiradi, chunki ular tayyor yechimlarni emas, balki o‘z yechimini topishi kerak bo‘ladi. Natijada, bitiruvchi oddiy nazariy topshiriqlarni bajaruvchi emas, balki real loyihalarni amalga oshirish ko‘nikmasiga ega mutaxassisga aylanadi.

Muammo asosida o‘qitish (Problem-Based Learning) esa talabalarga oldindan aniq formulalangan ma’ruza o‘rniga, avvalambor, amaliy masala yoki muammo taqdim etishni nazarda tutadi. Talabalar o‘z bilimlariga tayangan holda muammoni tahlil qilishadi, yechim yo‘llarini izlashadi va jarayon davomida yetishmayotgan bilimlarni o‘zlashtirishadi.

Texnik fanlarda bu usul juda qo‘l keladi – masalan, mexanika bo‘yicha mashg‘ulotda o‘qituvchi biror mexanik qurilmaning nosozligini hal qilish vazifasini beradi, talabalar esa uni hal etish jarayonida tegishli formulalar, qonunlar va tamoyillarni o‘zlashtiradi. Bu yondashuv yosh muhandislarda mustaqil fikrlash va tanqidiy tahlil qilish qobiliyatini oshiradi.

Interfaol texnologiyalarning yana bir muhim tarafi – virtual trening va masofaviy ta’lim platformalaridan foydalanishdir. Hozirgi vaqtda onlayn kurslar, veb-platformalar orqali ta’lim olish imkoniyati kengaydi. Xususan, dasturlash, sun’iy intellekt, elektronika kabi yo‘nalishlarda MOOC (Massive Open Online Courses) platformalari (Coursera, edX va boshqalar) orqali dunyoning ilg‘or universitetlari kurslari o‘zbek talabalari uchun ham ochiq bo‘lib bormoqda. Masalan, Stenford universiteti professori Endryu Ng tomonidan Coursera’da taklif etilayotgan Mashinasozlik (Machine Learning) kursini minglab muhandislik talabalari onlayn o‘qib, sun’iy intellekt asoslarini o‘rganishmoqda[30]. Bunday imkoniyatlar O‘zbekistondagi texnik mutaxassislar uchun ham ulkan bilim manbai bo‘lib xizmat qilmoqda va ta’limning ochiqligini ta’minlamoqda.

Shu o‘rinda, texnik ta’limda stajirovka va amaliyotlarni tizimli tashkil etish ham muhim innovatsion qadamdir. Dual ta’lim doirasidan tashqari ham, OTMlar o‘z talabalari uchun korxonalarda malakaviy amaliyot (internatura) o‘tashini muntazam yo‘lga qo‘yishi lozim. Bu borada, O‘zbekistonda so‘nggi paytlarda “Talaba amaliyotini korxonaga biriktirish” tizimi joriy etilmoqda – har bir talabaga uning mutaxassislik yo‘nalishiga mos ishlab chiqarish korxonasi biriktirilib, u yerda u ma’lum soat yoki kunlik amaliy ishlar bajaradi. Natijada talaba hali o‘qish jarayonidanoq ish muhitini his qiladi, o‘zini qiziqtirgan savollarga bevosita sohadan javob topadi.

Umuman olganda, loyiha va muammo asosidagi o‘qitish, interfaol usullar va amaliy stajirovkalarni texnik ta’limga keng joriy etish talabalar kompetentligini oshirishda beqiyos samara beradi. Bu usullar talabalarda tanqidiy va ijodiy tafakkur, muloqot va jamoada ishlash mahorati, liderlik kabi soft-kompetensiyalarni ham rivojlantiradi. Kelgusida yuqori malakali muhandis kadrlar nafaqat texnik bilimdon, balki kompleks muammolarni hal eta oladigan lider shaxslar bo‘lishi kerak. Aynan shunday barkamol mutaxassislarni tayyorlash uchun ta’lim jarayonini innovatsion metodlar bilan boyitish zarur.

Xorijiy va mahalliy tajribalarni taqqoslash: Yuqorida ko‘rib chiqilgan innovatsion yondashuvlarni joriy etishda ayrim mamlakatlar katta muvaffaqiyatlarga erishgan bo‘lsa, ba’zilari hali jarayon boshida. Ushbu bo‘limda O‘zbekiston texnik ta’lim tizimini rivojlantirishda xorijiy tajriba bilan solishtirib, asosiy xulosalar chiqariladi.

Birinchidan, ta’lim jarayonini raqamlashtirish va modellashtirish jihatidan AQSh, Yevropa va Osiyoning rivojlangan davlatlari allaqachon ilg‘or qadamlar qo‘ygan. Masalan, AQSh universitetlarida sun’iy intellekt va AR/VR texnologiyalar yordamida raqamli ta’lim platformalari yaratilib, talabalar amaliy ishlarni virtual muhitda bajarayotgani kuzatiladi.

Germaniyada esa muhandislik ta’limi Industry 4.0 talablariga mos ravishda qayta ko‘rib chiqilib, avtomatika va raqamli ishlab chiqarish elementlari o‘quv dasturlariga chuqur singdirilgan. Singapur va Janubiy Koreya kabi davlatlar universitetlari onlayn va oflayn ta’limni integratsiya qilgan holda “blended learning” – aralash

[30] Khusainov R.R. (2025) Development Of Engineering Education System In Uzbekistan In The Era Of Digital Technologies

ta’lim modeliga o‘tmoqda, bunda nazariy modullar onlayn, amaliy mashg‘ulotlar kampusdagi ilg‘or laboratoriyalarda o‘tiladi[31].

O‘zbekiston bu borada bir qator qadamlar tashlamoqda, ammo hali bosib o‘tilishi lozim bo‘lgan masofa bor. Yuqorida ta’kidlanganidek, ayrim universitetlar virtual laboratoriyalar va masofaviy kurslarni joriy qildi, moddiy bazani yaxshilash bo‘yicha xalqaro loyihalar amalga oshirildi[32]. Biroq hozircha bu yangiliklar barcha oliy ta’lim muassasalarini to‘liq qamrab olgani yo‘q. Ko‘pgina hududiy OTMlarda laboratoriya jihozlari eskicha bo‘lib, internet infrastrukturasining nochorligi virtual ta’lim platformalaridan samarali foydalanishga halaqit bermoqda. Xorijiy tajribadan kelib chiqib, O‘zbekistonda ta’limni raqamlashtirish borasida investitsiyalarni oshirish, barcha OTMlarni yuqori tezlikdagi internet va zamonaviy kompyuter texnikasi bilan ta’minlash ustuvor vazifa bo‘lishi zarur.

Ikkinchidan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi – dual ta’lim va sanoat hamkorligi bo‘yicha – qiyoslaganda Germaniya, Avstriya, Janubiy Koreya, Xitoy kabi davlatlar oldinda ekanini ko‘ramiz. Germaniyaning dual tizimi misolida ko‘rganimizdek, davlat, sanoat va ta’lim hamkorligi qonuniy va moliyaviy jihatdan puxta yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, natijasida malakali ishchi va muhandislar zaxirasi muntazam yangilanib boradi. Janubiy Koreyada “San’at va Texnologiya Universiteti” (UNIST) kabi muassasalarda har bir professor-ilmiy guruh bilan biriktirilgan sanoat partnyori bor, talabalar dars jarayonidayoq shu partnyorning real loyihalariga jalb etiladi. Natijada bitiruvchi korxona uchun tayyor mutaxassis bo‘lib etishadi. Xitoyda oxirgi o‘n yillikda “Universitet-Korxona” (University-Enterprise) hamkorlik markazlari ko‘plab tashkil etilib, har bir texnika universiteti yirik sanoat kompaniyalari bilan qo‘shma laboratoriya va texnoparklar ochmoqda.

O‘zbekistonda hozircha dual ta’limning ilk qadamlarigina qo‘yildi[33]. Ammo ijobiy tomoni shundaki, davlat miqyosida buni huquqiy jihatdan tartibga soluvchi qarorlar va nizomlar tasdiqlandi. Endi asosiy vazifa – ushbu qaror va rejalarni hayotga izchil tatbiq qilish. Buning uchun sanoat korxonalari rahbarlari ham ta’limga investitsiya kiritishning istiqboldagi foydasini anglab yetishi zarur. Mahalliy sanoat va biznes vakillari bilan muloqotlarni kuchaytirish, ularga universitet bitiruvchilarining salohiyatini ko‘rsatish lozim. So‘nggi vaqtlarda ba’zi ijobiy misollar paydo bo‘lmoqda: masalan, IT sohasida yirik kompaniyalar universitetlarda kafedralar ochib, malaka oshirish kurslari o‘tishyapti; energetika sohasida bir nechta zavod va kompaniyalar Texnika universitetlari bilan hamkorlikda maxsus amaliy o‘quv markazlari tashkil etdi. Bu boshlanishlar mamlakat miqyosida kengaytirilsa, dual ta’lim tizimi samarasi tez orada ko‘zga tashlanishi mumkin.

Uchinchidan, innovatsion pedagogik metodlarni qo‘llash darajasi bo‘yicha ham farqlar mavjud. AQSh va Yevropa universitetlarida loyiha asosida o‘qitish allaqachon o‘quv dasturlarining ajralmas qismiga aylangan. Hatto ayrim universitetlarda an’anaviy ma’ruza va amaliyotlar o‘rniga faqat loyihalar zanjiri orqali o‘qitish joriy etilgan. Masalan, AQShning Olin College of Engineering muassasasi to‘liq loyiha asosidagi o‘quv dasturiga ega – talabalar birinchi semestrdayoq real muammo ustida ish boshlaydi va har semestrda yangi loyiha orqali yangi bilimlar egallaydi.

